

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI
NIZOMIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT PEDAGOGIKA
UNIVERSITETI**

MAGISTRATURA BO'LIMI

Qo'lyozma huquqida

**Ijtimoiy-gumanitar fanlarni o'qitish metodikasi (Tarix)
Mutaxassislik: 5A110601**

To'xtasinov Dilshod Inomjon o'g'li


**“Uchtepa Bulqmozor arxeologik yodgorligi tarixiy topografiyasi va uning
tahlili” mavzusida**

**Magistr darajasini olish uchun tayyorlangan
DISSERTATSIYA**

Ilmiy rahbar: T.f.d. Prof. O'z. Res. F.A akademigi Ahmadali Asqarov
“ ” 2020-yil
imzo

Kafedra mudiri: T.f.n. Ozoda Rustamovna Rahmatullayeva
“Himoyaga tavsiya etildi”
“ ” 2020-yil
imzo

Magistratura bo'limi boshlig'i: R.SH.Berdiqulov
“Himoyaga ruxsat berildi”
“ ” 2020-yil
imzo



277-58



Toshkent 2020

Uchtepa Buloqmozor arxeologik yodgorligi tarixiy topografiyasi va uning tahlili mavzusidagi magistrlik dissertatsiyasi

ANNOTATSIYASI

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Dunyoda zamonaviy ildizlarini, kelib chiqishini aniqlashdir. Bu masalani yechishda tarixiy arxeologik materiallarning o'rnini katta. Shuning uchun insoniyat tomonidan yaratilgan madaniy me'ros obyektlarini asrab avaylash, arxeologik yodgorliklarni o'rganish, ularni saqlash va ta'mirlash, shu orqali tarixni obyektiv yoritish bugungi kunda muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Namangan viloyati Norin tumani Uchtepa qishlog'ida joylashgan **“Uchtepa Buloqmozor”** majmusida keng ko'lamli arxeologik qazishmalar o'tkazilib, ustini oynali moslama bilan yopib, **“Uchtepa Buloqmozor majmuasi”** tarkibidagi **“Moviy osmon”** ostidagi muzeyga aylantirish g'oyasi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Oliy Majlisga murojaatnomasidagi **“Muqaddas qadamjolar va yodgorliklarni ziyorat qilishdan iborat bo'lgan “kichik haj”dasturini rivojlantirish va jadallashtirish bandiga, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018 yil 79-sonli topshirig'iga ko'ra, 2019-20 yillarga mo'ljallangan amaliy tadqiqotlar va innovatsion ilmiy-texnika loyihalar dasturiga, “Ilmiy va ilmiy-texnikaviy faoliyat natijalarini tijoratlashtirish samaradorligini oshirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida” 2018 yil 14-iyulda qabul qilingan PQ-3855 sonli Prezident Qarori va O'zbekiston Respublikasining 2021-yilgacha innovatsion rivojlanish strategiyasi to'g'risidagi Prezident Farmoni loyihasiga asoslanadi.**

Tadqiqotning maqsad va vazifalari:

- O'zbek xalqi tarixida otashparastlik ibodatxonasi bo'lgan Uchtepa-2 yodgorligini tutgan o'rnini aniqlash;
- Uchtepa Buloqmozor majmuasining hududiy joylashishi va uning topilish tarixini izohlash;
- Uchtepa Buloqmozor majmuasining strategiyasi, uning o'rganish metodikasiga aniqliklar kiritish;

- Uchtepa Bulqmozor majmuasida topilgan altar-o'choqlar va tosh otashkadalarning tuzilishi va diniy marosimlarining o'ziga xos tomonlarini ochib berish;

- Uchtepa Bulqmozor yodgorligi kulolchilik mahsulotlarining tavsifiy va davriy harakteristikasini yoritib berish;

- Uchtepa Bulqmozor yodgorligidan topilgan hunarmandchilik buyumlarining turlari va tavsifiy xarakteristikasini ochib berish;

Tadqiqotning ilmiy yangiligi.

a) "Uchtepa Bulqmozor-2" yodgorligi mil. avv II va milodiy VIII asrlarda aynan shu mintaqaning markaziy ibodatxona bo'lganligi va bu joy ibodatxona ekanligini isbotlovchi tosh otashkadalar va altar-o'choqlar aniqlandi;

b) Qazishma ishlari jarayonida Uchtepa Bulqmozor-2 jamoaviy ibodatxona ekanligi aniqlandi;

c) Markaziy ibodatxonada altar-o'choqlari otashparastlikka oid ekanligi, toshdan ishlangan otashkadalar ham bo'lganligi va otashparastlik dafn marosimlari va qabr oldiga hayvon go'shtini qo'yilganligi kuzatildi.

d) Arxeologik izlanishlar bu tub joyli aholi VIII asrdagina musulmon dinini qabul qilganligini ko'rsatadi;

Tadqiqotning asosiy masalalari va farazlari. Uchtepa Bulqmozor otashparastlik ibodatxonasini Qadimgi Farg'ona davlatining mahalliy hokimliklardan birining islom diniga qadar ajdodlarimiz topinib kelgan umumshahar diniy-mafkuraviy markazi bo'lib, bunday yodgorlik Namangan viloyatida ilk bor o'rganilmoqda.

Loyiha oldida turgan asosiy vazifa nafaqat yangi ochilgan otashparastlik ibodatxonasini o'rganib ilmiy muomilaga kiritish, shu bilan birga uni "Moviy osmon" ostidagi muzey qilishga ilmiy jihatdan tayyorlash edi.

Kalit so'zlar: Uchtepa Bulqmozor, markaziy ibodatxona, altar-o'choqlar, tosh qurilmalar, topografiya, strategiya va moviy osmon ostidagi muzey.

Ilmiy rahbar: T.f.d. Prof. O'z. Res. F.A akademigi akademik. A. Asqarov

Magistrant: D. To'xtasinov

Master's dissertation on the historical topography of Uchtepa Bulakmozor archeological monument and its analysis

ANNOTATION

Relevance and necessity of the dissertation topic. It is to determine the modern roots, the origins of the world. Historical archeological materials play an important role in solving this problem. Therefore, the preservation of man-made cultural heritage sites, the study of archeological monuments, their preservation and restoration, and thus the objective coverage of history are of great importance today.

The idea of turning large-scale archeological excavations in the Uchtepa Bulqmozor complex in the Uchtepa village of the Naryn district of the Namangan region into a museum under the Blue Sky as part of the Uchtepa Bulqmozor complex was covered with glass. According to the order of the Cabinet of Ministers of the Republic of Uzbekistan No. 79 of 2018, the item "Development and acceleration of the" small pilgrimage "program, consisting of visits to holy sites and monuments in the Address of the President to the Oliy Majlis, for 2019-20 Presidential Decree No. PQ-3855 of July 14, 2018 "On additional measures to increase the effectiveness of commercialization of the results of scientific and technical activities" and the program of applied research and innovative scientific and technical projects; To the draft Presidential Decree on the Strategy of Innovative Development of the Republic of Uzbekistan until 2021 a sauce.

Research goals and objectives:

- To determine the place of the monument Uchtepa-2, which is a fire temple in the history of the Uzbek people;
- Explain the territorial location of the Uchtepa Bulakmozor complex and the history of its discovery;
- Strategy of Uchtepa Bulakmozor complex, clarification of its study methodology;
- To reveal the peculiarities of the structure and religious ceremonies of the altar-hearths and stone fireplaces found in the Uchtepa Bulakmozor complex;
- Clarification of descriptive and periodic characteristics of pottery of Uchtepa Bulakmozor monument;

- To reveal the types and descriptive characteristics of handicrafts found in the Uchtepa Bulakmozor monument;

Scientific novelty of the research.

The monument "Uchtepa Bulakmozor-2" In the 2nd and 8th centuries BC, stone fireplaces and altar-furnaces were discovered, proving that this was the central temple of the region and that it was a temple;

During the excavations, it was discovered that Uchtepa Bulakmozor-2 was a community temple;

It was observed that the altar-hearths of the central temple belonged to fire-worshippers, there were also stone-hearth fire-places, and animal-meat was placed at the fire-burial ceremonies and tombs.

Archaeological excavations show that the indigenous people converted to Islam only in the eighth century;

The main issues and hypotheses of the research. Uchtepa Bulakmozor fire-worshipping temple is a city-wide religious and ideological center of one of the local administrations of the ancient Fergana state, where our ancestors worshiped before Islam, and this monument is being studied for the first time in Namangan region.

The main task of the project was not only to study the newly opened fire temple and put it into scientific use, but also to prepare it scientifically to turn it into a museum under the "Blue Sky".

Keywords: Uchtepa Fountain, central temple, altar-hearths, stone structures, topography, strategy and museum under the blue sky.

Ilmiy rahbar: T.f.d. Prof. O'z. Res. F.A akademigi akademik. A. Asqarov

Magistrant: D. To'xtasinov

UCHTEPA BULOQMOZOR ARXEOLOGIK YODGORLIGI TARIXIY TOPOGRAFIYASI VA UNING TAHLILI.

KIRISH.....8-12- bet

**I-BOB. UCHTEPA BULOQMOZOR MAJMUASI OBYEKTLARINING
TABIIY GEORAFIK JOYLASHUVI VA UNING
O'RGANILISHI.....13-24-bet**

**1.1. Uchtepa-2 obyektining joylashish o'rne va uni o'rganishning
boshlanishi.....13-17-bet**

a). Tabiiy geografik joylashuvi.....13-bet

b). Yodgorlikning o'rganishni boshlanishi.....13-14-bet

v). Yodgorlikning xarakteri.....14-15-bet

g). Zamonaviy texnologiyalar asosida olib borilgan ishlar.....15-17-bet

**d).Uchtepa 2 obyektini arxeologik jihatdan o'rganish
natijalari.....17-18-bet**

**1.2. Uchtepa-2 obyektining o'rganish metodikasi va
strategrafiyasi.....18-23- bet**

a). Planegrafik qazish ishlari.....20-22-bet

b). Shifobaxsh buloq.....22-23-bet

Birinchi bob bo'yicha xulosalar.....24-bet

**II-BOB. UCHTEPA-2 OBYEKTI ANTIK VA ILK O'RTA ASRLAR
DAVRI OTASHPARASTLIK IBODATXONASI.....25-42-bet**

**II.1 Uchtepa-2 obyektida topilgan galvirak xom loydan ishlangan altar
o'choqlar va ularning xarakteristikasi.....25-34-bet**

**II.2. Uchtepa-2 obyektida topilgan toshdan ishlangan otashkadalar va
ularning xarakteristikasi.....35-41-bet**

**II.3. Ibodatxona xarobalari maydonida uchratilgan qabrlar
tavsifi.....41-42-bet**

Ikkinchi bob bo'yicha xulosalar.....43-bet

III-bob. Uchtepa-2 obyektidan topilgan ashyoviy dalillar va ularning tavsifiy xarakteristikasi va xronologik sanasi.....	44-56-bet
III.1. Keramika va uning tiplari.....	44-45-bet
a). Dasturxon idishlari.....	45-51-bet
b). Oshxona idishlari.....	51-52-bet
v). Xo‘jalik idishlari.....	52-56-bet
III. 2. Tosh ma’budalar, toshga ishlangan san’at va diniy kult predmetlari.....	56-58-bet
III. 3. Muqaddas tosh pichoqlar.....	57-58-bet
III. 4. Muqaddas xaoma ichimligini tayyorlash mehnat qurollari.....	58-bet
III.5. Uchtepa arxeologik majmuasi yuzasidan olib borilgan yozma ma’lumotlar talqini va tahlili, ularning arxeologik lokalizatsiyasi.....	58-61-bet
Uchinchi bob bo‘yicha xulosalar.....	62-bet
IV-BOB. IV Bob. Tajriba sinov ishlari: tahlil va xulosalar.....	63-78-bet
4.1. Tarix ta’limida eksperimental darsni tashkil etish metodlari.....	63-73-bet
4.2. Tajriba-sinov natijalari.....	73-78-bet
To‘rtinchi bob bo‘yicha xulosalar.....	79-bet
Yakuniy xulosa.....	80-82-bet
Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.....	83-84-bet
ILOVALAR.....	85-126-bet
Glossariy.....	127-131-bet

Kirish

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Dunyoda zamonaviy tarix fanining dolzarb muammolaridan biri bu hozirgi xalqlarning tarixiy ildizlarini, kelib chiqishini aniqlashdir. Bu masalani yechishda tarixiy arxeologik materiallarning oʻrni katta. Shuning uchun insoniyat tomonidan yaratilgan madaniy meʼros obyektlarini asrab avaylash, arxeologik yodgorliklarni oʻrganish, ularni saqlash va taʼmirlash, shu orqali tarixni obyektiv yoritish, har tomonlama chuqur oʻrganish, aholi va yoshlar oʻrtasida keng targʻib qilish davlat siyosati darajasiga koʻtarilgan. Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev bu xususda shunday fikr bildirgan: “Eng avvalo, yoshlar va aholi oʻrtasida mamlakatimizning boy tarixini, uning betakror madaniyati va milliy qadriyatlarini keng targʻib qilish, jahon ilm-fani va adabiyoti yutuqlarini yetkazish uchun zarur muhit va shart-sharoit yaratish haqida bormoqda”.¹

Dissertatsiya mavzusining yana bir zarurati shundan iboratki, obyekt joylashgan Namangan viloyati Norin tumani Uchtepa qishlogʻida Ichki va xalqaro turizmning **“Uchtepa Buloqmozor”** majmuasi arxeologik yodgorliklarini oʻrganish va ularni “Moviy osmon” ostidagi muzeyga aylantirishdir.

Taʼkidlash joizki, Uchtepa qishlogʻining paydo boʻlishi aslida aynan mana shu Buloqmozor suv zaxirasi bilan bogʻliq boʻlib, bundan 2-2,5 ming yil avval ushbu Buloqmozor atrofida qator aholi punktlari qad koʻtaradi. Ular keyinchalik hayotsiz tepaliklarga aylanadi. Oʻzbekiston Respublikasi Innovatsiya Vazirligining “Yuqori texnologiyalar ilmiy-texnika markazi” yordamida Uchtepa Buloqmozor majmuasi tarkibiga kirgan Uchtepa-2 obyektida izlanishlar oʻtkazildi, ularning biri qadimgi monumental ibodatxona qoldiqlari, ikkinchisi esa, qadimgi qalʼa harobalari ekanligidan guvohlik bermoqda. Ularda keng koʻlamli arxeologik qazishmalar oʻtkazilib, ustini oynali moslama bilan yopib, “Uchtepa Buloqmozor majmuasi” tarkibidagi “Moviy osmon” ostidagi muzeyga aylantirish gʻoyasi esa, Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining Oliy Majlisga murojaatnomasida

¹ Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qatʼiy tartib-intizom va shahsiy javobgarlik har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi boʻlishi kerak. -T: 2017. 49-bet.

“Muqaddas qadamjolar va yodgorliklarni ziyorat qilishdan iborat bo‘lgan “kichik haj” dasturini rivojlantirish va jadallashtirish bandi, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 79-sonli topshirig‘iga ko‘ra, 2019-20-yillarga mo‘ljallangan amaliy tadqiqotlar va innovatsion ilmiy-texnika loyihalar dasturi, “Ilmiy va ilmiy-texnikaviy faoliyat natijalarini tijoratlashtirish samaradorligini oshirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” 2018-yil 14-iyulda qabul qilingan PQ-3855 sonli Prezident Qarori va O‘zbekiston Respublikasining 2021 yilgacha innovatsion rivojlanish strategiyasi to‘g‘risidagi Prezident Farmoni loyihasiga asoslanadi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947-sonli “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi hamda 2017-yil 16-fevraldagi PF-4958-son “Oliy o‘quv yurtidan keyingi ta’lim tizimini yanada takomillashtirish to‘g‘risida”gi Farmonlari, 2017-yil 24-maydagi PQ-2995-son “Qadimiy yozma manbalarni saqlash, tadqiq va targ‘ib qilish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori, shuningdek, ushbu sohaga oid me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda mazkur dissertatsiya muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqot obyekti qilib Farg‘ona vodiysi Namangan viloyati Norin tumani Uchtepa qishlog‘ida joylashgan Uchtepa Buloqmozor majmuasi belgilandi.

Tadqiqot predmetini ushbu yodgorliklarning tarkibiy qismi bo‘lgan otashparastik tosh va altar-o‘choqlari, otashparastlikka oid rohibalarning qabrlari, ulardan topilgan moddiy-madaniyat ashyolari tashkil etadi.

Tadqiqotning maqsad va vazifalari:

- O‘zbek xalqi tarixida otashparastlik ibodatxonasi bo‘lgan Uchtepa-2 yodgorligining tutgan o‘rnini aniqlash;
- Uchtepa Buloqmozor majmuasining hududiy joylashishi va uning topilish tarixini izohlash;
- Uchtepa Buloqmozor majmuasining strategiyasi uning o‘rganish metodikasiga aniqliklar kiritish;

- Uchtepa Bulqmozor majmuasida topilgan altar-o'choqlar va tosh otashkadalarning tuzilishi va diniy marosimlarining o'ziga xos tomonlarini ochib berish;

- Uchtepa Bulqmozor yodgorligi kulolchilik mahsulotlarining tavsifiy va davriy harakteristikasini yoritib berish;

- Uchtepa Bulqmozor yodgorligidan topilgan hunarmandchilik buyumlarining turlari va tavsifiy xarakteristikasini ochib berish;

Tadqiqotning ilmiy yangiligi.

a) Uchtepa Bulqmozor-2 yodgorligi mil. avv II va milodiy VIII asrlarda aynan shu mintaqaning markaziy ibodatxona bo'lganligi va bu joyda ibodatxona ekanligini isbotlovchi tosh otashkadarlar va altar-o'choqlar aniqlandi;

b) Qazishma ishlari jarayonida Uchtepa Bulqmozor-2 yodgorligi jamoaviy ibodatxona ekanligi aniqlandi;

c) Markaziy ibodatxonada altar-o'choqlari otashparastlikka oid ekanligi, toshdan ishlangan otashkalar ham bo'lganligi va otashparastlik dafn marosimlari va qabr oldiga hayvon go'shtini qo'yilganligi kuzatildi.

d) Arxeologik izlanishlar bu tub joyli aholi VIII asrdagina musulmon dinini qabul qilganligini ko'rsatadi;

Tadqiqotning asosiy maqsadi va vazifalari. Uchtepa Bulqmozor otashparastlik ibodatxonasi Qadimgi Farg'ona davlatini mahalliy hokimliklardan birining islom diniga qadar ajdodlarimiz topinib kelgan umumshahar diniy-mafkuraviy markazi bo'lib, bunday yodgorlik Namangan viloyatida ilk bor o'rganilmoqda.

Loyiha oldida turgan asosiy vazifa nafaqat yangi ochilgan otashparastlik ibodatxonasini o'rganib ilmiy muomilaga kiritish, shu bilan birga uni "Moviy osmon" ostidagi muzey qilishga ilmiy jihatdan tayyorlash hisoblanadi.

Tadqiqot mavzusi bo'yicha adabiyotlar sharhi (tahlili) Farg'ona vodiysining antik va ilk o'rta asrlar davri madaniyatlari, diniy e'tiqodlarini

N.G.Gorbonova², Y.F.Zadneprovskiy³, T.G.Obolduyeva⁴, A.A.Anorboyev⁵, B.X.Matboboyev⁶, S.S.Qudratov⁷, M.G.Abdullayev⁸, S.R.Baratov⁹ va boshqa mualliflarning ilmiy ishlarida kuzatishimiz mumkin. Yuqoridagi mualliflar o'zlarining ilmiy ishlarida o'rganilayotgan mavzu uchun keng ko'lamli tadqiqotlar olib borishmagan. Dissertatsiyaning maqsadi Uchtepa-2 obyektni keng ko'lamli batafsil o'rganishdan iborat.

Tadqiqotda qo'llanilgan metodikaning tavsifi. Tadqiqotda tarixiylik, ilmiy holislik va obyektivlik tamoyillariga to'la amal qilgan holda, ilmiy muammoni o'rganish va tahlil qilishda tarixiy-falsafiy uslublardan, ya'ni analiz va sintez, tizimlashtirish, mavhumlikdan murakkablikka intilish, tarixiylik va mantiqiylik, qiyosiy solishtirish metodlardan foydalanildi. Ushbu usullar tadqiqot mavzusining ilmiy-metodologik asoslarini tashkil etdi.

Tadqiqot natijalarining nazariy va amaliy ahamiyati: Tadqiqotning ilmiy natijalaridan ilmiy-tadqiqotchilar o'z izlanishlarida, ko'p jildli antik va ilk o'rta asrlar davri otashparastlikka oid ma'lumotlarni yozishda, barcha oliy o'quv yurtlari va malaka oshirish kurslarida seminarlar tashkil etishda foydalanish mumkin.

Dissertatsiyaning amaliy ahamiyati esa, jamiyatning ma'naviy-axloqiy, diniy va dunyoviy qadriyatlar, etnomadaniy meros va o'zbek xalqiga xos milliy an'analar tadqiq etishga bag'ishlangan maqsadli davlat dasturlarini bajarilishiga, shuningdek, obyektiv tarixiy bilimlarni takomillashtirishga xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Tadqiqotda tarix fanida tan olingan yondashuv va ilmiy usullar asosida Uchtepa Buloqmozor, undagi moddiy madaniyat yodgorliklarining o'rganilganligi, tadqiqotdagi har bir masala moddiy manbalar bilan taqqoslanganligi, magistrlik ishining ekspeditsiya ishlarida qo'lga

² Горбунова Н.Г. Керамика поселений Ферганы первых веков нашей эры // ТГЭ. Т. XX. С. 114-146.

³ Заднепровский Ю.А. Древнеземледельческая культура Ферганы. // МИА, №118. –М-Л. Наука. 1962.

⁴ Оболдуева Т.Г. Раскопки 1960 года на городище Эйлатан // КСИА. Вып. 91. 1962. С.38-47.

⁵ Анарбоев А.А. Ўзбек давлатчилиги тарихида қадимги Фарғона ва Ахсикент // “Ўзбек халқи ва давлатчилиги” Республика илмий семинари материаллари. Самарқанд. 2001. Б.5-22.

⁶ Матбобоев Б.Х., Машрабов З. Древний и средневековый Андижан. –Т., 2011.

⁷ Кудратов С.С. Ранние гончарные печи с городища Эйлатан // ОНУ. 1991. №3. С.75-76.

⁸ Абдуллаев М.Г. “Бобурнома”да Фарғона водийси топонимикаси // Буюк ипак йўли ва Фарғона водийси. Республика илмий-амалий андуман материаллари. –Т., 2004. Б.194-200.

⁹ Баратов С.Р., Баратова Л.С. Уникальный брактеев из Варзикского могильника // ОНУ. №1. 1990. С.35-38.

kiritilgan arxeologik materiallar asosida yozilganligi, tarixiy va arxeologik ilmiy adabiyotlar chuqur tahlil etilib, ulardan to'plangan yangi materiallardan chiqarilgan xulosalar va tavsiyalarning amaliyotga joriy etilganligi bilan xarakterlanadi.

Dissertatsiyaning tuzilmasining tavsifi. Dissertatsiya kirish, to'rtta bob, xulosa, manbalar va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati, ishda foydalanilgan qisqartma so'zlar izohlaridan tashkil topgan. Dissertatsiya matniga chizma va foto materiallardan iborat albom-illyustratsiya ilova qilingan.

I-bob. Uchtepa Buloqmozor majmuasi obyektlarining tabiiy geografik joylashuvi va uning o'rganilishi.

1.1. Uchtepa-2 obyektining joylashish o'rni va uni o'rganishning boshlanishi.

A). Tabiiy geografik joylashuvi. Uchtepa Buloqmozor majmuasi Farg'ona vodiysi Namangan viloyati Norin tumanidagi Uchtepa qishlog'ida Namangan-Xaqqulobod avtomagistral yo'lining chap sohilida joylashgan (1-rasm).

Uchtepa Buloqmozor majmuasi dengiz satxidan 419 metr balandlikda, geografik jihatdan qulay joyda joylashgan. Yodgorlik joylashgan hudud tabiiy iqlimi jihatidan keskin kontinentaldir. Yozi juda issiq, qishi esa sovuq. Iyulning o'rtacha harorati $+35^{\circ}$, yanvarda esa -5° ni tashkil etadi. Yodgorlikning shimol tomonidan Markaziy Tyanshandan boshlanuvchi Norin daryosi¹⁰ (uning umumiy uzunligi 807 km) oqib o'tadi.

Yodgorlik joylashgan hududning janubidan Sirdaryoning asosiy irmoqlaridan bo'lgan, Farg'ona tizmasining janubiy-sharqiy va Oloy tizmasining shimoliy yon bag'irlaridan boshlanadigan Tar va Qorag'ulja daryolarining qo'shilishidan hosil bo'ladigan Qoradaryo oqib o'tadi. Bu daryolarga to'xtalib o'tishimizdan maqsad, aynan yodgorlik joylashgan qishloq har ikki daryoga ham chegaradosh. Shimolda Norin daryosi, janubda esa Qoradaryo. Aynan yodgorlik joylashgan hududni biz **ikki daryo oraligi** deb bema'lol aytishimiz mumkin. Bu ikki daryolarning shu hudud atroflaridan o'tganligi qadimdan bu yerlik aholiga dehqonchilik qilish imkoniyatini bergan.

B). Yodgorlikning o'rganishni boshlanishi. Uchtepa Buloqmozor majmuasida dastlabki tadqiqot ishlari 1963-yilda akademik A.Asqarov boshchiligida boshlandi. O'sha paytda tepaliklarning yoshini aniqlash maqsadida "Uchtepa-1" yodgorligida stratigrafik shurf qazildi. Shurfning yuqori qatlamlarida ilk o'rta asrlar davri, pastki quyi qatlamlaridan antik davriga tegishli sopol parchalari chiqa boshladi. Shurf 2 metr chuqurlikkacha qazildi. Antik davr

¹⁰ Norin daryosi boshlanishidan to'g'ri Qoradaryoga qo'shilish joyigacha ko'plab daryolar unga qo'shiladi. O'nlarcha daryosi, so'ngra So'nko'ldan chiqib keladigan Ko'kjerti, Otboshi daryosi, Olabuqa daryosi, Ko'kiyrim daryosi, Ko'ko'me-ren, Uzunaxmat va Qorasuv daryolari Norinning eng yirik irmoqlari hisoblanadi.

qatlaminig yuqori qismidan qoramtir angobli sopol parchalari, uning quyi qatlamlaridan tiniq qizil angobli sopol parchalari uchratila boshlandi. Shurf materikkacha yetkazilmay, qazishma ishlarining uchunchi kuni qazishma ishlarini to'xtatishga to'g'ri kelgan. Chunki, yodgorlikni shurflash shaxsiy tashbus bo'lib, uni davom ettirishga katta mablag' sarflash zaruriyati va bunga davlat tominidan rasmiy ruxsatnoma bo'lishini talab qilar edi.

O'sha kezlarda Uchtepa-2 yodgorligida arxeologik shurf solish zarurati bo'lmagan. Ammo, uning saqlanish xolati, yer satxidan 8-10 metr balandligi, uning tepasida hech bir arxeologik artefaktlar, yoki biror narsaga ishora etuvchi belgining ko'zga tashlanmasligi, uni hukmdor mozoqo'rg'oni sifatida talqin etishni taqozo etar edi. Bunday yodgorlikda arxeologik qazishmalar boshlandimi, uni oxirigacha yetkazish kerak edi. Chunki, islomga qadar vafot etgan kishining hayotlik davrida jamiyatda tutgan mavqeyiga qarab ma'lum bir qism boyligi bilan ko'mish, kasbi-koriga qarab artefaktlar qo'shib ko'mish an'anaga aylangan bo'lib, buni hisobga olishlik arxeolog uchun zarur edi. Qazilma ishlari olib borilgan yodgorlik biz kutganday hukmdor qarorgohi emas, balki, antik davrining otashparastlik shahar ibodatxonasi bo'lib chiqdi.

V). Yodgorlikning xarakteri. Ibodatxona harobalarini qazish jarayonida juda noyob topilmalar topildi. Jumladan, topilmalar orasida 40 dan ortiq olovga sig'inish altar o'choqlar, qurbonlik hayvonlarini so'yish uchun tayyorlangan 10 dan ortiq turli davrlarga oid muqaddas tosh pichoqlar (jertvennye noji), toshdan yasalgan bir necha xil turdagi sanam-ma'budalar, ko'plab otashparastlik bilan bog'liq diniy-kult ashyoviy dalillar, muqaddas xaoma ichimligini tayyorlashda ishlatiladigan tosh yorg'uchoqlar, minglab kulolchilik charxida professional yuksak darajada yasalgan nafis sopol idish parchalari (ular orasida arxeologik busbutunlari ham bor), ayrim ibodatxona rohibalarining qabrlari, qabr skeletlari bel qismidan temirdan yasalgan bel kamarining to'qalari, qurbonlik hayvonining suyak parchalari va ular yonidan temir pichoq va qabrga ovqat bilan qo'yilgan sopol idishlar, zardushtiylikda muqaddas hisoblangan kuchuklar qabri topildi.

Ularni tuproqdan tozalash va shifrlash jarayonida sopol parchasida va qator tosh ma'budalar tanasida mixxat alifbosi shaklida bitilgan eng qadimgi yozuv namunalari va olov bilan bog'liq samoviy iloh va farishtalar suratlari ishlangan sxematik toshsanamlar, ularning ba'zilarida hayvon va baliq suratlari chizilganki, ularning ilmiy qimmati qadimgi madaniyat va ma'naviyatni o'rganish uchun benihoyat cheksizdir. Chunki, bu topilmalar Farg'ona vodiysi tub joy aholisining ajdodlari orasida rosa 2 ming yil avval oromiy yozuvida savodxonlik va yuksak tajribali musavvirlar bo'lganligidan guvohlik beradi. Bunday qadimgi noyob yodgorlik nafaqat Norin tumanida, balki qadimgi Farg'ona vodiysining biror viloyati yoki tumanida avval uchratilmagan.

2018-yil iyul oyida Uchtepa Buloqmozor majmuasida akademik A.Asqarov boshchiligida, Innovatsion rivojlanish vazirligining "Yuqori texnologiya laboratoriyasi" otryadi bilan hamkorlikda geofizik izlanishlar olib borildi. Quyida Innovatsiya rivojlanish vazirligining "Yuqori texnologiya laboratoriyasi" yordamida olib borilgan geofizik izlanishning natijasini keltirib o'tamiz.

G). Zamonaviy texnologiyalar asosida olib borilgan ishlar. Uchtepa Buloqmozor arxeologik yodgorliklarida ("Uchtepa №1" va "Uchtepa №2") dastlab 2018 yil iyul oyida Innovatsion rivojlanish vazirligining "Yuqori texnologiyalar laboratoriyasi" zamonaviy texnologiyalar asosida yerni skayner qilish (foto magnitli skayner), planigrafik va strategifik qazishma ishlari olib borildi.

Laboratoriya anomaliyalarga asoslangan geofizik metodlar orqali 10 metrgacha chuqurlikda saqlanib qolgan arxeologik artefaktlar, qadimgi me'moriy qurilma qoldiqlarini topishi mumkin ekanligi va so'ng ularni arxeologik qazishmalar orqali qanchalar realligini aniqlash kerakligi masalasi ko'tarildi.

Geofizika tadqiqotlari o'tkazishdan oldin har ikkala obyektning yantoq, tikanli o'tlar, pichan, qamish bosgan hamda mahalliy aholi tomonidan ahlatxonaga aylantirilgan ustki qismini tozalashga to'g'ri keldi. Bu ishga tashabbuskor qishloq aholisi va arxeologlar guruhi safarbar etilib, tepalarning markaziy qismidan 30 mashinadan ortiq axlat olib chiqilib, obyektlar geofizika izlanishlariga tayyorlab berildi (2-rasm).

Geofizika dala tadqiqotlarining metodikasi asosida obyektlarni strukturaviy tarkibini o'rganishda topogeorazvedka metodlari qo'llanilib, georadiolokatsiya ma'lumotlari olindi.

“Georadiolokatsiya – past-tubli geofizikaning eng mashhur usullaridan biridir. Bu natijalarni deyarli real vaqtda olish imkonini beradi. U elektromagnit usullar va seysmik deb ataladi. Bu usul elektromagnit to'lqinlarning tarqalishi va ro'yxatga olish tamoyillarini birlashtiradi va aks ettirilgan signallarning shakllanishi toshlarning elektr xususiyatlarining kontrastiga asoslanadi.

Georadiolokatsiya usulini sayoz suv havzalari, qor-muz qoplami, beton tuzilmalar va boshqalarni tekshirishda kichik chuqurliklarga (10 metrgacha) qo'llanilganda ajoyib natijalar (tizimli rejalar) beradi.

Usulning mohiyati elektromagnit to'lqinni uyg'otish va uni atrof-muhit bo'limi chegarasidan aks ettirishdir. Aslida, georadiolokatsiyani “elektromagnit to'lqinlar seysmik profillash” deb atash mumkin.

Georadar bitta manbadan, bitta qabul qilgichdan, boshqaruv blokidan va ma'lumotlarni yozishdan iborat. Hozirgi vaqtda turli xil markaziy chastotali turli xil georadarlar va antenna bloklari (AB) mavjud. Ishlab chiqarishda bir xil profilni tekshirish uchun turli chastotalarga ega bo'lgan bir nechta antenna bloklari qo'llaniladi, chunki to'lqin uzunligi markaziy chastotaga bog'liq bo'lib, tadqiqotning o'lchamlari va chuqurligi, eng yuqori qatlamning tuzilishini (1 metrgacha) o'rganish uchun yuqori chastotali (1200-2000 MGts) antenna blokidan foydalanish maqbuldir. 1-2 metr chuqurlikda o'rganish uchun o'rtacha chastotali (700-1200 MGts) antenna bloki va past chastotali antenna bloki (25-700 MGts) 2-5 metrdan ortiq chuqurlikda o'rganildi (3-rasm).

Tadqiqot qilingan joylarda 100 MGts chastotali antenna birligi, sensor va dasturiy ta'minot (Kanada) qurilmalari ishlatilgan. Ish boshlanishidan oldin arxeologik obyektning markaziy qismi panjara bilan buzi ma'lumotlarni qayta ishlash EKKO-Project 3 dasturiy ta'minotidagi standart ustunga muvofiq amalga oshirildi (4-rasm).

Geometriyani kiritish va vaqtinchalik qisqartirishlarni o'rnatish natijasida, zichlikdagi anomalialar bilan obyektlarni vizual tarzda aniqlash, shuningdek, bu anomalialarning qatlamlar bo'ylab chuqurligini kuzatish imkonini beruvchi model qurildi. Georadiolokatsiya tadqiqotlari natijasida yuqori va past zichlikdagi anomalialarning quyidagi olingan rasmlari o'rganilayotgan hududda geterogenlik mavjudligini ko'rsatadi (5-rasm).

Uchtepa-2 obyektida 1,5 metr chuqurlikdan boshlab zichlikdagi anomalialarni aniq kuzatish mavjud. Ushbu anomalialar osongina 7 metr chuqurlikda kuzatilishi mumkin (6-rasm).

O'tkazilgan tadqiqotlar arxeologik obyektlarni aniqlashda georadiolokatsiya tadqiqotlaridan foydalanish samaradorligini ko'rsatdi. Olingan natijalarning ishonchliligi keyingi dala qazishmalarining natijalari bo'yicha tekshiriladi va ushbu yondashuvning xolisligida baholanadi.

D). Uchtepa 2 obyektini arxeologik jihatdan o'rganish natijalari.

"Yuqori texnologiyalar laboratoriyasi" geofizika tadqiqotlari natijalarining arxeologik qazishmalar orqali ochib o'rganish maqsadida 2019-yil aprelidan to oktabr oyi oxirigacha Uchtepa-2 obyektida qazishmalar olib borildi. Biroq o'rganilgan Uchtepa-2 arxeologik obyekt mutlaqo galvirak madaniy qatlamlardan tashkil topgan bo'lib, geofizika izlanishlarida ko'rsatilgan qurilma qoldiqlarini to'liq reja asosida tiklashga imkon bo'lmadi.

Chunki, asrlar davomida sho'r va nam ta'sirida nurab ketgan ibodatxonaning devor va madaniy qatlamlari shunchalar galvirak, madaniy qatlamlar bir-birlari bilan qorishib ketgan edilarki, ularni ochib o'rganishning o'zi ko'p qiyinchiliklar, altar-o'choqlarni dastlabki tabiiy ko'rinishida saqlab qolish juda og'ir kechdi. Agar ustozning ko'p yillik amaliy tajribasi, bilim diopozoni keng bo'lmaganda noyob topilmalarni kelajak avlodga muzey ekaponatlari sifatida o'z o'rnida saqlab qolish amri mahol edi.

Uchtepa-2 obyektini joylashgan joyning tarixiy topografiyasida ushbu zardushtiylik ibodatxonasi shaharning shaxriston qismida bo'lib chiqdi. Undan 500 metrlar chamasi sharqda shahar hokimining yozgi rezidensiyasi qaynar buloq

yoqasida qad ko'targan ("Uchtepa-1"). Uning sho'r bosib g'alvirak sho'rhokga aylangan xarobalari o'rtasi cho'kma Tuproqko'rg'onni eslatadi. Ikki tepalik oralig'i va qadimgi shaharning g'arbiy maydonida katta hovli-joylar tarkib topib, Uchtepa Bulqmozor arxeologik yodgorliklar majmuasi o'zining qadimgi shahar qiyofasini butunlay yo'qotdi.

1.2. Uchtepa-2 obyektining o'rganish metodikasi va strategiyasi.

Yuqorida takidlanganidek, yodgorlikning tarixiy topografiyasiga ko'ra, qazishma olib borilayotgan tepa aslida antik va ilk o'rta asrlarga tegishli qadimgi katta shaharning bir bo'lagi bo'lgan. Uning asosiy qismi sobiq sovetlar davrida tekislanib, ekinzorlarga o'g'it, atrof aholiga tomorqa yer uchastkasi qilib bo'lib berib yuborilgan. Bizgacha saqlangan tepa maydoni taxminan 0,50 ga. Qazishma jarayonida ochilgan me'moriy qurilma qoldiqlari va topilmalar tarkibiga ko'ra, bu tepa qadimgi shahar aholisining Quyoshga sig'inadigan muqaddas ibodatxonasi bo'lgan. Ibodatxonaga bundan 2 ming yil avval asos solingan. Arablar bosqini davrida ibodatxona vayron etilib, keyin qayta tiklanmagan.

Xozirgi kunda Uchtepa-2 yodgorligi milodiy VIII asr oxirlaridan shakllana boshlagan va xozirgacha davom etib kelayotgan qishloq qabristoni bilan qo'shilib ketgan. Xatto, keyingi yillarda uning quyoshga o'ngay tomonida qabrlar paydo bo'la boshlaydi. Yodgorlikda arxeologik qazishmalar boshlangach, qishloq oqsoqollarining roziligi olinib, bunga chek qo'yildi.

Yodgorlikni o'rganishda avval uning eng baland nuqtasiga reper qozig'ini o'rnatib, tepa markaziy maydonining ustki qismi 2×2 metrli kvadrat setkalarga bo'lib chiqildi. Har bir kvadrat maydoni sho'rhok mayin tuproqdan 1 metr chuqurlikda tozalandi. Tozalangan maydondan na qurilish qoldiqlari, na sopol parchalari uchratildi. So'ng tepa maydoni 4 ga bo'linib, ular ham birin-ketin sho'rhok mayin tuproqdan tozalana boshlandi. Ayniqsa tepasini shimol va

shimoliy-sharqiy tomonlari tevarak-atrof aholi tomonidan chiqindixonaga aylantirilgan bo'lib chiqdi. Yodgorlikning bu qismini chiqindidan tozalash davomida uning bu tomonlari materikkacha buzib tashlanib, turli xil xo'jalik xonalari qurilganligi tufayli tegishli madaniy qatlam saqlanmaganligi aniqlandi.

Shundan so'ng yodgorlikning yoshini aniqlash, yogorlikda tarkib topgan madaniy qatlamlarning xronologik ketma-ketlikda shakllanishini o'rganish maqsadida uning ikki joyida strategifik shurf va transheya qazildi.

Stretegrafik shurf tepalikning shimoli-g'arbiy tomonida, tepalik chegarasi $3,5 \times 2,40$ metr xajmda qazildi. Uning chuqurligi xozirgi yer satxidan to ona yer (materik) qatlamiga 1,70 sm. ni tashkil etadi. Ona yer materik qatlami och-jigarrangli tuproqdan iborat bo'lib, uning ustida kulrang qatlam joylashgan. Bu qatlamda tiniq va qizil rangda angoblangan sopol parchalari va hayvon suyaklarining siniqlari uchratildi. Uning yuqorisida 1,30 sm qalinlikda sarg'ish tuproqli madaniy qatlam joylashgan. Bu qatlam tarkibida to'qqizil va ochqizil ranglarda angoblangan sopol parchalari, mog'orbosgan sopol qozon siniqlari, yongan o'tin ko'mir va uy hayvoni suyaklari uchratildi. Angoblangan sopol parchalari juda yupqa stenkali, kulolchilik charxlarida yasalgan. Qazishmalarni yuqori qismining yuzi yangitdan chim bosib ketgan. Shurf maydonida qurilma qoldiqlari uchratilmadi.

Stratigrafik transheya tepalikning shimoliy tomonidan janubga qaratib solindi. Uning uzunligi 10 m., kengligi 1 metrdan iborat (7-rasm). Transheya kesmasida shimoldan janub tomon paxsa va xom g'isht qatlamlari aralash madaniy qatlamlarni kesib 4 metrgacha tushildi, uning janubiy adog'ida esa 2 metr masofada 7 metrli chuqurlikda ochildi.

Ma'lum bo'ldiki, ibodatxona loyi zich qilib yaxshi ishlov berilgan, chamasi 1,5 metr qalinlikdagi platforma ustiga qurilgan. Transheya kemasining madaniy qatlami qazishma sathidan 5-5,5 metrgacha davom etadi. Platforma tarkibida arxeologik artefaktlar uchratilmadi, u ko'kimtir balchiq loyni eslatadi. Transheya madaniy qatlamlarining pastki qismida antik davrga, yuqori kesmasida esa ilk o'rta asrlarga tegishli sopol parchalari va hayvon suyaklari uchratildi. Transheyaning

shimoliy boshlanishidan (chegarasidan) g'arbiy devori uzunasi bo'ylab 8,70 m. masofada 5,5 metr chuqurlikda doira shaklida qurilgan altar-o'choqning yarmi ochildi. Altarning diametri 90 sm., uning rezervuari oq rangdagi kulga to'la. Kullar orasidagi tiniq qizil rangda angoblangan sopol parchalari topildi. Ushbu altar-o'choq ibodatxonaning ilk boshqichiga tegishli bo'lsa kerak.

Stretegrafik transheya qatlamlari tarkibini o'rganishda, uning kesmasida platforma va madaniy qatlamlarning xronologik ketma-ketlikda o'rganish og'ir kechdi, ya'ni transheya kesmasida madaniy qatlamlarni bir-biridan ajratish juda qiyin bo'ldi. Chunki, obyekt tuprog'ning xom loydan qurilgan paxsa va g'ishtlarning tarkibini sho'r bosgan, uning qurilishida ishlatilgan ko'kimtil balchiq loy va joyning sho'r bosgan, uning qurilishida ishlatilgan ko'kimtir balchiq loy va joyning g'alvirak tuprog'i qamish va yong'oq ildizlariga to'la bo'lib, asrlar davomida ana shu qamish va yong'oq ildizlari amalga kirib, tepalikning ostidan to yuzasiga qadar, tepalik tanasini butunlay qamrab olgan. Yantoq tomirlari kattalashib, xatto ibodatxona atashkalarini xar joydan yorib chiqib, madaniy qatlam va uyning qurilmalarini saqlashiga katta zarar keltirgan. Ana shu shu yovvoyi o't-o'simliklarni joylanishi tufayli ibodatxona devorlari va madaniy qatlamlar katta zarar ko'rib-uqalanib, devorlarning saqlanishi xam, ilmiy laboratoriya kesmasida aks etganidek, g'alvirak xolatda yoki shu yovvoyi o't-o'simliklarni jonlanishi tufayli ibodatxona devorlari bizgacha yetib kelgan. Tepalikning qaysi qismini ochib oynadek tozalamaylik 3-4 kun o'tar-o'tmas ildizi chuqur ketgan yantoq va qamish nishlari o'sib chiqa boshladi. Ochilgan maydonni sho'r bosadi. Bu holat transheya kesmasida ham yaqqol ko'zga tashlanadi.

Ammo, ilmiy ekspeditsiya oldida qator muhim vazifalar turar edi. Ulardan eng asosiysi qadimgi muhandislarning ibodatxona qurilishidagi bosh g'oyaviy rejasini arxeologik qazishmalar orqali aniqlash edi.

A). Planegrafik qazish ishlari.

Yodgorlikda olib borilgan arxeologik qazishmalar, kuzatuvlar shuni ko'rsatdiki, haqiqatda ibodatxonani birlamchi asosi qalinligi 1,5 metr atrofida bo'lgan platforma ustiga qurilgan. Dastlabki platforma maydoni to'g'ri

to'rtburchak shaklida bo'lib, atrofi chamasi 1 metr qalinlikdagi mudofaa devori bilan o'rab olingan. Keyinchalik bu devor tashqarisidan unga yopishtirib, ikki marta mirza devorlar urilgan (bu fakt yodgorlikning janubiy tomonida kuzatildi).

Qazishmalar natijasiga ko'ra, ibodatxonaga kirish markaziy eshigi uning shimoliy tomonida bo'lib, u qalin paxsa devorli koridor sifatida bo'lganligi aniqlandi. Koridorni sharqiy devori fundamental xarakterga ega. Koridor uzunligi ibodatxonaning markaziy qismiga, bosh otashkada joylashgan zalgacha ochilmadi (Chunki ibodatxonaning markaziy zalga qadar tepalik qismi hali o'rganilmagan). Shuningdek, koridorning g'arbiy devori masalasida ham muammo bo'lib, uning qanday kenglikda bo'lganligi hali aniqlangani yo'q. Chunki, koridorning g'arbiy "devori" sharqiy devor kabi fundamental tarkibga ega emas. Extimol g'arbiy devor chegarasi stratigrafik transheyanning sharqiy chegarasi chegarasiga borib taqalar.

Yuqorida ta'kidlaganimizdek, tepalik yuzasidan 1 metrlar chamasi chuqurlikdan ibodatxona devorlari chiqa boshladi. Ularning saqlanishi, qalinligi har xil edi. Birinchi devor (o'q devor) sharqdan g'arbgacha tomon ketgan, qalinligi 80 sm. dan kam emas. Devorning shimol tomonida 3 ta xona ochildi. Birinchi xona ibodatxonaga kirish eshigiga taqalgan. Uning ichki maydonidan 9 ta altar-o'choqlar topildi. Uning sharqida ikkinchi xona joylashgan. Uning ichida ham altar o'choqlar va tosh altarlar joylashgan. O'q devorning sharqiy qismida uchinchi xona bo'lib, uning maydonidan ham bir necha altar-o'choqlar va tosh altarlar topildi. O'q devorni janubiy tomoni ibodatxonaning markaziy qismi bo'lsa ajab emas. O'q devorga perpendikulyar qilib, janub tomonga qalin devor ketgan, qalinligi 80 sm. dan kam emas. Uning sharqiy tomonida kattagina uzun xona joylashgan. Uning ichi ham altar-o'choq va tosh altarlarga to'la. Ushbu uzun xonaning janubida o'q devordan sharqqa tomon ketgan qalinligi 50 sm. lik devor o'tgan. Devorning janubiy orqasidan altar-o'choq topilmadi. Ammo tosh altarlar uchratildi. Shunday kenglikdagi tor devor ibodatxona markaziy qismining janubi qismidan ham topildi.

Ibodatxona markaziy qismining g'arbiy tomoni perpendikulyar devorlar bilan uch xonaga bo'lingan. Ularning har birini ichi altar-o'choq va tosh altarlarga

to'la. Ibodatxonani markaziy maydoni hali to'liq ochilmadi. Shu bois, kutilgan markaziy zal va bosh otashkada hozircha topilmadi.

Galdagi vazifa yangi mavsumda unga ham e'tibor berishlikni talab qiladi.

B). Shifobaxsh buloq. Uchtepa Bulqmozor majmuasi yonida judayam shirin, shifobaxsh bo'lgan qadimiy buloq joylashgan. Bu buloq bir million yillik tarixga ega. Uning chuqurligi 650 metrdan oshiqroq. Yoz oylarida buloqning suvi juda sovuq, qishda esa iliq bo'ladi. Chanqab turgan insonni chanqog'ini tez qondiradi va qondirilgan chanqoq uzoq vaqt bosilib turadi. Bu suvni to'yib ichsangiz haqiqatdan ham rohatlanasiz. Bu suv o'zida inson organizmiga kerakli bo'lgan mikroelementlarni o'zida jamlagan. Bu suv organizmga umuman salbiy ta'sir ko'rsatmaydi. Hattoki buloqni qirg'oqloridagi loylari ham tanadagi teri va boshqa kasalliklarni davolash xususiyatiga ega. Bulq suvi yana oshqozon-ichakdagi ko'plab kasalliklarga ham davo bo'ladi. Qadimdan buloq o'sha hududning asosiy suv manbai bo'lgan. E'tibor berib qarasak ikkala obyekt ham aynan buloqqa yaqin joyda qurilgan. Aynan hozir o'rganilayotgan qadimiy va markaziy ibodatxona ham bejizga buloq atforida qurilmagan.

Buloqning sharq tomonida daraxtzor so'lim oramgoh joylashgan. Oramgoh obod qilinib, muqaddas buloqni ko'zlari ochilib, uni tartibga solinsa, buloq suvini qadoqlab, uni qayta rekonstruksiya qilib, tuman byudjetiga katta daromad keltiruvchi obyektga aylantirish; shuningdek, buloq suvining bir qismini suvsizlikdan qaqshab yotgan Uchtepa qishlog'i orqali oqizib, qishloq aholisining hech bo'lmaganda bir qismini suv bilan ta'minlash; Bulqmozor mikrokompleksi doirasida tadbirkorlar tashabbusi bilan kitob va gazeta-jurnal do'konlari, zamonaviy osti oshxona, usti mehmonxonali binolar barpo etish, turli tijorat do'konlari, madaniy markaz va kutubxona tashkil etish; jamoatchilik xojatxonasi, sartaroshxona, yengil avtostoyanka va boshqalar tashkil etish; Uchtepa Bulqmozor kompleksi doirasida qishloq qabristoni bo'lib, uni o'z davrida kesib o'tgan magistral yo'l yoqalab tadbirkorlik yo'li bilan har biri 30 kvadrat metrdan kam bo'lmagan 30 ta xususiy tijorat do'konlari barpo etish maqsadga muvofiqdir. Taxminiy hisob-kitoblarga ko'ra, viloyat hokimiyati bu ishlarga katta e'tibor berib,

bosh-qosh bo'lsa, kelajakda bu maskanni xalqaro turistik kurortga aylantirish istiqboli mavjud.

Xalq yodnomalaridan ma'lumki, ushbu obyekt arablar bosqini davrida vayron etilgach, Uchtepa qishlogida mahalliy otashparastlarni islom diniga kiritish yo'lida qurbon bo'lgan Qurayish onaning qabri makon topgan. Bu afsonaviy qahramon mahalliy xalq orasida Qora Xotun nomi bilan ma'lum va mashhur edi. Uchtepa Buluqmozorida tarkib topgan qabriston ana shu Qurayish ona-Qora Xotun qabri tufayli shakllangan. Afsuski, Sovet davrining ataistik mafkurasi uni obod etish emas, balki vayronaga yuz tutib, yo'q bo'lishgacha olib kelgan.

Respublika Prezidentining sharofati bilan Payg'ambarimiz Mug'ammad alayhisalom qavmidan bo'lgan Qurayish ona haqidagi tarixiy haqiqat moddiylikda qaror topgach, Osiyo musulmon mamlakatlaridan xaj safariga otlangan sayyohlar Uchtepada barpo etilayotgan turizm obyektiga qadam ranjida qilishlari tabiiy hol. Bu esa shubhasiz Uchtepa Buluqmozor majmuasi tarkibida shinam bir masjid barpo etishni taqozo etadi.

I-bob bo'yicha xulosalar. Ushbu bobda arxeologik qazishma ishlariga va Innovatsiya vazirligining “Yuqori texnologiyalar laboratoriyasi” geofizika tadqiqotlari natijalariga tayanib Uchtepa-2 obyekti antik va ilk oʻrta asrlarga tegishli otashparaslik ibodatxonasi ekanligi tasdiqlandi. Shuningdek, ushbu bobda yangi ochilgan otashparastlik ibodatxonasini oʻrganib ilmiy muomilaga kiritish, shu bilan birga uni “Moviy osmon” ostidagi muzey qilishga ilmiy jihatdan tayyorlash bayon qilindi. Bu masalada Namangan viloyati hokimiyat rahbarlari bilan kelishilib, Hokimiyat va “Oʻzbekturizm” homiyligida ibodatxona otashkadalari va meʼmoriy devor qoldiqlari namoyishida uning noyob topilmalarini ekspozitsiya stendlariga joylashtirib, ichki va xalqaro turizm uchun yangi obyektni tayyorlash koʻzda tutildi.

II-bob. Uchtepa-2 obykti antik va ilk o'rta asrlar davri otashparastlik ibodatxonasi.

II.1 Uchtepa-2 obyktida topilgan galvirak xom loydan ishlangan altar o'choqlar va ularning xarakteristikasi.

Markaziy Osiyo bir qancha dinlar tarqalgan hududlar sirasiga kiradi. Bu dinlar sirasiga otashparastlik, buddaviylik, qam-shomonlik, xristianlik, islom va boshqalar kiradi. Bu qadimdan mahalliy aholining turli dinlarga e'tiqod qilib kelishganliklaridan dalolat beradi. Uchtepa qishlog'ida joylashgan Uchtepa-2 arxeologik yodgorligidan otashparastlik ibodatxonasining topilishi shu yerlik aholining qadimda otashparastlik diniga e'tiqod qilishganligi ko'rsatmoqda. Uchtepa-2 obykti antik va o'rta asrlar davriga oiddir. Arxeologik qazishmalar davomida ibodatxonaning madaniy qatlamlari yaxshi saqlangan tepa qismidan, bir xil gorizont tekislikda, uning aylanasi bo'ylab doira va oval shaklida yasalgan bir qator tosh qurilmalar ochildi (8-rasm). Ular ichidan va tevarak-atroflaridan ilk o'rta asrlarga tegishli sopol parchalari topildi. Ulardan 50-60 sm.lar chamasi pastroqdan oval, to'g'rito'rtburchak va doira shaklida qurilgan pastkam bortli va bortsiz altar-o'choqlar chiqa boshladi (9-rasm). Ular oraligida tiniq qizil va qoramtir angobli nafis sopol parchalari, otashparastlik diniy – kult bilan bog'liq predmetlar, tosh yorg'uchoqlar, sxematik tosh ma'budalar, qurbonlik qilishga mo'ljallangan hayvonlarni so'yish uchun maxsus tayyorlangan tosh pichoqlar, zardushtiylarda muqaddas hisoblangan kuchuklarning suyaklari, otashparastlik ibodatxonasi rohibalarining suyak qoldiqlari va muqaddas ichimlik tayyorlash uchun qilingan yorg'uchoqlar uchratildi (10-14-rasmlar). Altar-o'choqlarning deyarli aksariyati ibodatxona markaziy maydonining g'arbiy, shimoliy, sharqiy va qisman janubiy tomonlarini o'rab olgan xonalarda joylashgan edi.

Endi har xil gorzontal tekislikda ochilgan altar-o'choqlarni saqlash muammosi paydo bo'ldi. Chunki ularning o'ta murakkab sho'rxok madaniy qatlamlar ta'sirida uchrashi ochilgan otashkadalarni tabiiy holatda saqlab qolish

havfidan dalolat berar edi. Darhaqiqat, har bir usti ochilgan altar-o'choqni tabiiy eksponat holatiga keltirmaguncha (usti maxsus moslama bilan yopilgunigacha) sho'rlashish va qishki namgarchiliklardan saqlashni taqozo etar edi.

Jahon arxeologiyasi amaliyotida bu muammo hali o'z ilmiy yechimini topmagan. Har bir eksponat obyektini tabiiy holatda saqlab qolishda yoz mavsumining o'ta issiqligi ham salbiy ta'sir etmoqda edi. Shuning uchun ularni tozalash va saqlashlikning murakkabligini hisobga olib, usti ochilgan har bir altar-o'choqni topilishi bilan raqamlab, ustini oq bo'z materilida, ustidan qalin qora satin mato yopib, ustiga yana plastik qog'oz tashlab mayin tuproq bilan ko'mib chiqishga to'g'ri keldi. Ba'zilarining yupqa devorlarini uqalanib ketishini oldini olish maqsadida qalinligi 5 sm.li beton devor g'ovlar yordamida extiyot choralari ko'rildi (15-rasm).

To'g'ri, bu qo'shimcha, kutilmagan shoshilinch ishlar ortiqcha moliyaviy xarajatlarni talab qiladi. Shunday qilib, obyektini ilmiy o'rganish smetasida ko'rsatilmagan zaruriy choralarga ortiqcha pul sarflashga to'g'ri keldi, ya'ni ibodatxona altar-o'choqlarini dala sharoitida birlamchi arxeologik konservatsiyalash usullari yordamida saqlab qolishga harakat qilindi. Arxeologik obyektlarni dala sharoitida o'rganishda bunday yondashuv doimo qo'llanib kelingan. Quyida ularning ochilish tartibiga ko'ra tavsifi berildi.

Uchtepa-2 obyektida hozirga qadar 40 dan ortiq altar-o'choqlar topildi. 1-guruhi – g'alvirak xom loydan ishlangan altar-o'choqlar jami 41 tani tashkil qiladi. Ular quyidagilar:

Arxeologik qazuv ishlarini ilk kunlaridanoq dastlabki kul qoldiqlariga duch keldik. Yodgorlikning yuqori qismidan, markaziy maydonidan 50 sm. qazib tushildi. Eng yuqori qatlamda 10-15 sm. lik chim qatlami o'rnashgan bo'lib, uning pastida yumshoq tuproqli qatlam o'rnashgan.

Chim qatlamidan so'ng pastdagi yumshoq tuproqli qatlamdan so'ng 90-100 sm. pastlikda tekis pol aniqlandi. Polning qalinligi 1-2 sm. bo'lib, u boshqa tuproqlardan o'qarib ajralib turibdi.

Altar-o‘choq №1 tepalikning sharqiy tomonidan joylashgan. Bizgacha saqlangan holatiga ko‘ra, altar to‘g‘ri to‘rtburchak shaklida, o‘z davrida yaxshi ishlov berilgan xom loydan qurilganiga qaramay, yerdagi namlik va sho‘r tufayli altarning chegara bort devorlari nurab uqalanib ketgan, bizgacha uning kuyib qizarib uqalanib ketgan izlari saqlangan, uning o‘lchami 40×50 sm. Altarning ichki maydoni oq rangli toza kulga to‘la. O‘choq atrofidan qizil rangdagi angoblangan nafis sopol parchalari topildi. Altar-o‘choq №1 ning shimolida, bir xil maydonda, doira shaklida boshqa bir altar-o‘choq topildi. Uni altar-o‘choq №2 deb atadik. Olovda kuyib qip-qizarib ketgan bort devorining diametri 45-50 sm. . Altarning ichki maydoni mayin tuproq aralash kulga to‘la. Altar №2 altar №1 bilan shunchalar yaqin joylashganki, bu ikki altar-o‘choqlar qo‘sholoq otashkadani eslatadi (16,17-rasmlar).

Altar-o‘choq №3 doira shaklida yodgorlikni sharqiy qismida joylashgan bo‘lib, diametri 30×30 sm., uning pastkam chegara devorlari olov ta’sirida kuyib, toza pishgan g‘isht rangini olgan. Altar ichi mayin tuproq aralash oqish rangli kulga to‘la. Altar-o‘choqni janubi-sharqiy burchagida qandaydir belgili qayroq tosh uchratildi. Ushbu altar shunchalar galvirak nurash holatidaki, uni ustini yopishdan oldin atrofini beton devorcha bilan muhofaza qilib yopishni lozim topdik (18-rasm).

Altar-o‘choq №4 tepalikning sharqiy tomonida, kun chiqar tomonda joylashgan, doirasimon aylana shaklida, o‘lchami 70×70 sm. Bort devorining saqlanish balandligi 8-10 sm. Altarning o‘rtasi oppoq kulga to‘la. Altar-4 ning kullari yaxshi saqlangan bo‘lsada lekin, devorlari yaxshi saqlanmagan. Uning janubiy va sharqiy qism devorlarining anchagina qismi mayda kemiruvchilar (kalamush, yumronqoziq va sichqon) tufayli buzulib ketgan.

Uning shimolida Altar №5 joylashgan (19-rasm).

Altar-o‘choq №5 ham altar №4 kabi doirasimon aylana shaklida, o‘lchami 60×60 sm. . Bort devorining saqlanish juda yomon, qachonlardir yer kemiruvchi kalamishlar altar devorlarini buzib tashlagan. Uning faqatgina g‘arbiy va janubiy tomonlarida ozroq saqlangan bort devor qoldiqlari saqlangan. Joylarda saqlangan

bort devorining balandligi 12 sm. . Altarning rezervuar maydoni oppoq kulga to'la. Altarni galvirak holatini, uni ochib to'liq o'rganguncha saqlash maqsadida, uning tevarak-atrofini beton devorcha bilan muhofaza qilindi (20-rasm).

Altar-o'choq-6 ham yodgorlikning sharqiy qismida, altar-5 va altar-7 ni orasida joylashgan. Altar-6 ovalsimon aylana shaklida, o'lchami 40×45 sm. . Bort devorining saqlanishi juda yomon, ya'ni nurab, qip-qizil galvirak tuproqqa aylangan. Altar ichi oppoq kulga to'la (21-rasm).

Altar-o'choq №7 shunchalar yomon saqlanganki, hatto uning shaklini ham aniqlab bo'lmadi. Chunki, altar o'rni deb atalgan maydoncha olovda kuygan galvirak qurilma parchalari bilan qoplangan. Uni tozalab, aniq shaklini tiklash masalasi kelgusiga qoldirildi, ya'ni yodgorlik usti yopilgach, uni o'rganish ishi nihoyasiga yetkaziladi (22-rasm).

Altar-o'choq №8 tepalikning sharqiy kun chiqar tomonida joylashgan. Ushbu altar to'g'rito'rtburchak shaklidagi chuqur rezervuarni eslatadi. Uning o'lchami 85×100 sm. . Bort devorining balandligi 13 sm. gacha saqlangan. Altarning ichida oppoq kul izlari uchraydi. Altar devorining ichki sirti yaxshi ishlov berilgan loy bilan suvalib restavratsiya qilingan. Chunki, suvoq orqasida olovda kuygan qip-qizil pishiq g'isht rangidagi bort devorining uqalanuvchan qoldiqlari ko'zga tashlanadi (23-rasm).

Altar-o'choq 9 oval shaklida, o'lchami 27×37 sm, . bort devorining balandligi 5 sm. . Uning kul qismi va devor qirg'oqlari obyektning shimoli-ga'rbga qarab ulanib bormoqda. Altarning ichi oppoq kulga to'la (24-rasm).

Altar-o'choq №10 tepalikning shimoli-sharqiy qismidan topildi. Davriy jihatdan yuqorida tavsif etilgan altar-o'choqlardan yosh, tosh qurilmali altarlardan esa oldin faoliyatda bo'lgan. Ushbu altarda bort devorlari kuzatilmadi, uning ovalsimon aylana shaklidagi maydoni (o'lchami 75×80 sm.) olov ta'sirida kuyib, qizarib ketgan. Ostida hech qanday tag'kursi kuzatilmadi, altar qalin (60 sm. dan ortiq) madaniy galvirak qatlam ustiga qurilgan. Uning ostidan, og'zi sharqqa qaratilgan to'g'rito'rtburchak shaklida qurilgan kuyi qatlamga tegishli bortli altar topildi. Ushbu altarga altar-o'choq №11 deb nom berildi (25-rasm).

Altar-o'choq №11 altar №10 ni ostida bo'lgani bois, uning to'liq tavsifini berish hozircha mumkin bo'lmadi. Ammo, uning to'g'rito'rtburchak shaklida ekanligiga shak-shubha yo'q. Shuningdek, uni rostmana bortli altar sifatida tasavvur etish mumkin. Altarning og'zi tomonidagi bortining balandligi 20 sm. gacha saqlangan. Altar maydonining ichi oppoq kulga to'la, qul orasida tiniq qizil angobli yupqa sopol parchalari uchraydi. Altar uzoq vaqt aktiv faoliyatda bo'lgani bois, uning bort devorlari toshqolga aylanib ketgan.

Ushbu altar og'zining shimol tomonida kvadrat shaklda (o'lchami 20×20 sm.), bortli mitti altarcha topildi. Davriy jihatdan altar-o'choq №11 bilan bir davr. Uning bort devorini balandligi 6 sm. Altarni og'zi quyosh chiqishiga qaratilgan. Extimol bu altar bolalar uchun yasalgan bo'lishi mumkin (26-rasm).

Altar-o'choq №12 tepalikning shimol tomonida joylashgan, doira shaklida, qalin galvirak madaniy qatlam ustiga qurilgan, o'lchami 40×40 sm, ichi kulga to'la. Altarning shimoli-sharqiy burchagining bort devori olovda kuygan qip-qizil rangda, uning janubi-g'arbiy tomonida altar bortining devor izlari ko'zga tashlanadi. Altarni ko'mish oldida uni tosh bardyur bilan muxofaza qilinib, so'ng usti yopilgan (27-rasm).

Altar-o'choq №13 ovalsimon aylana shaklida bo'lib, yodgorlikning shimoliy qismida joylashgan. O'lchami 35×40 sm, uning ichi kulga to'la, bort devorlari juda yomon saqlangan, ya'ni nurab ketgan (28-rasm).

Altar-o'choq №14 ham ovalsimon aylana shaklida, o'lchami 50×60 sm, saqlanishi juda yomon, altar maydoni kulga to'la. Chegara borti saqlanmagan. Altar-14 yodgorlikning shimoliy qismida joylashgan (29-rasm).

Altar-o'choq №15 shakli to'g'ri to'rtburchakli bo'lgan, ammo saqlanishi juda yomonligidan uning bortidan ayrim parchalargina bizgacha saqlanib qolgan. Tahminiy o'lchami 30×48 sm. Altar maydonida kul izlari bor. Altarni shimoliy qismida mayda tosh yorg'uchoq topildi (30-rasm).

Altar-o'choq №16 qo'sh kamerali ovalsimon shaklda, o'lchami 40×50 sm, bort devorining balandligi 12 sm. gacha boradi. Altar ichi oppoq kulga to'la. Qo'sh kamerali altarning shimoli-sharqiy tomoni buzilib ketgan (31-rasm).

Altar-o‘choq №17 yodgorlikning shimolida, ibodatxonaga kirish darvozasining fundamental devoriga taqab o‘rnatilgan, ikki kamerali, ichi oppoq kulga to‘la, qulli kamera o‘lchami 50×70 sm, bort devorli, shimol tomoni buzilgan. Shuning uchun uning shimol tomonini betonli bardyur bilan to‘sisib qo‘yildi. Aks holda uning ustini yopish ancha og‘ir kechar edi (32-rasm).

Altar-o‘choq №18 yodgorlikning shimoliy qismida joylashgan bo‘lib, to‘g‘ri to‘rtburchak shaklida, o‘lchami 35×40 sm, ichi to‘la kul, devorlari olov ta‘sirida qizarib toshqolga aylanib ketgan. Altar bortining balandligi 5-6 sm. Altar-18 ham kullari ham juda yaxshi saqlangan (33-rasm).

Altar-o‘choq №19 keyingi altarlardan bilan ya‘ni altar-18 va altar -20 ga juda yaqin joylashgan. Bu uchta altarlarning ichida yaxshi saqlanmagani altar-o‘choq 19 dir. Uning shakli to‘g‘ri to‘rtburchak, o‘lchami 40×55 sm, ichi to‘la kul, saqlanishi juda yomon, bort devorlari saqlanmagan (34-rasm).

Altar-o‘choq №20 saqlanishi juda yomon, hatto uning shaklini tiklashni iloji bo‘lmadi. Uning maydoni tuproq aralash kul bilan qoplangan. Altar-20 ham yodgorlikning shimoliy qismida joylashgan. Taxminiy o‘lchami 30×40 sm. Altar-20 ning devorlari qizarib aniq bilinib turibdi. Lekin bu topilma ham to‘liq saqlanmagan. Altarning qolgan qismidan ko‘rishimiz mumkinki, uning shakli aylana shaklda bo‘lgan. Keyinchalik qolgan qismlariga zarar yetgan. Altar-20 ga mayda kemiruvchilarning zarari tekkanligini yaqqol ko‘rishimiz mumkin (35-rasm).

Altar-o‘choq №22 tepalikning markaziy qismida, kalamushlar titib vayronaga keltirgan haroba holda uchratildi. Uning o‘rnida olovda kuyib qizarib ketgan vayrona saqlangan. Uning o‘lchami ham, shaklini ham tiklashni imkoni bo‘lmadi. Shu bois uni ustini bez mato bilan yopib, to‘liq ochib o‘rganishni kelgusi mavsumga qoldirildi. Ushbu altar-o‘choqdan 80-90 sm. pastroqda rohibaning qabri va uning atrofidan zardushtiylarda muqaddas bo‘lgan kuchukning suyaklari topildi. Uning yonidan esa juda nafis sopol idishlar ham topildi. Bular 1) ko‘za, 2) vaza, 3) xurmacha. Bularning hammasi antik davrga (birinchi bosqich) tegishli bo‘lgan sopol idishlar hisoblanadi (36-rasm).

Altar-o'choq №24 tepalikning shimoli-sharqiy tomonida, oval shaklida, o'lchami 60x80 sm, yuzasida qoramtil angobli sopol parchalari uchratildi. Maydoni kul izlari uchratildi. Uning devor qoldiqlarini izlari yaxshi saqlanmagan. Bu altar hali to'liq ochilmagan bo'lib, uning yo'nalishi obyektning janubida va sharqiy tomon davom etmoqda. Qolgan qismlarini ochish keyingi mavsumga qoldirildi (37-rasm).

Altar-o'choq №25 to'g'ri to'rtburchak shaklida bo'lib, yodgorlikning janubiy-g'arbida joylashgan. o'lchami 16x26 sm, Bort devorining balandligi 12 sm. Janubiy devori buzilgan, og'zi g'arbga qaragan (38-rasm).

Altar-o'choq №26 tepalikning g'arbiy bo'lagida, doira shaklida, o'g'zi g'arbga qaratilgan holda ishlangan. Uning kullari va devorlari ham yaxshi saqlangan. Lekin altar-26 devorlarining shimoliy va shimoli-sharqiy qismi yemirilgan qolgan qismlari saqlangan. Bort devorli, uning balandligi 10 sm. gacha saqlangan. Altar diametri 35x35 sm, ichi kulga to'la. Yodgorlikning ustki qismi yopilgunga qadar uning ustiga bo'z mato va salafan tashlab, yana tuproq bilan ko'mib qo'yildi (39-rasm).

Altar-o'choq №27 ibodatxonaning markaziy qismidan, tepalikning eng baland joyidan topildi. Uning kullari yaxshi saqlangan. Lekin uning devorlariga mayda kemiruvchilar juda qattiq zarar keltirgan. Shuning uchun uni shaklini aniqlashning imkoni bo'lmadi. Taxminiy o'lchami 90x160 sm. Olovda kuygan tuproq qatlamining qalinligi 10 sm. Uning shimoli-g'arbiy qismida aylana shaklli toshlarni uchratishimiz mumkin. Bu aylana shakldagi toshlar soni 7 donani tashkil etadi (40-rasm).

Altar-o'choq №29 tepalikning g'arbiy bo'lagidan topildi. Qalin madaniy qatlam ustiga trapesiya shaklida xomg'ishtlar terib chiqilgan. Uning shimoli-g'arbiy tomoni kengroq (20 sm.), janubi-sharqiy tomoni torroq (12 sm.). Bort devorining balandligi 7 sm. gacha saqlangan. Altar ichi oppoq kulga to'la. Altarning tor tomoni 4 ta daryo toshlari bilan o'ralgan. Altarning janubi-sharqiy tomonidan 3 qator tosh terilgan yo'lak ochildi. Extimol, ziyoratchilar mana shu

tosh yo‘lakcha orqali altarni tavob etishga kelishgandi. Ushbu jumboqni yechimi kelgusi izlanishlarning vazifasidir (41-rasm).

Altar-o‘choq №30 oval shaklida, stenkali, o‘lchami 22×35 sm. Bort devorining balandligi 13 sm. Altarni janubi-sharqiy qismida kul izlari saqlangan, kul atrofidagi tuproq oloq ta’sirida kuyib qizarib ketgan. Kuyib kizarib ketgan maydonni o‘lchami 80×110 sm. U yerdan topilgan sopol parchali altarni so‘nggi antik davrga tegishli ekanligidan dalolat beradi.

Altar-o‘choq 31 tepalikning janubi-g‘arbiy otsekida, oval shaklida, 1 metrlik madaniy qatlam ostidan topildi. Altar maydoni olov ta’sirida kuyib qizarib ketgan, ustida kul izlari uchraydi. Altar devorining qalinligi g‘arbiy tomondan 8 sm. Altarning shimoli-g‘arbiy burchagiga esa tosh terilgan (42-rasm).

Altar-o‘choq №32 yodgorlikni g‘arbiy qismida joylashgan. Altar-32 ning kullari qisman saqlangan. Devorlari ham yaxshi saqlanmagan. Uning bizgacha olovda kuygan tuproq holatida yetib kelgan. Shuning uchun uning shaklini ham aniqlashning imkoni bo‘lmadi. Uning o‘lchami 20×38 sm (43-rasm).

Altar-o‘choq №33 ham yodgorlikni g‘arbiy qismida, altar-32 dan 20 sm. teparoqda joylashgan. Ushbu altar-o‘choq to‘g‘ri to‘rtburchak shaklida, o‘lchami 26×30 sm, stenkali, bort devorining balandligi 12 sm, janubi devori buzilib ketgan. Altar ichi kulga to‘la. Bu altar-o‘choqni yana bir o‘ziga xos tomoni shundaki, u ushbu ibodatxonaning rohibasi qabridan 1 metr sharqda joylashgan (44-rasm).

Altar-o‘choq №34 ostida chegarasi noaniq chuqurchada yirikroq daryo toshlari orasidan past bo‘yli yirik hayvonning kalta, lekin yo‘g‘on bitta oyoq suyagi, odamning ikkala boldir suyaklarining parchalari, yana qandaydir mayda hayvonning suyak parchalari (kurak suyagi, ilik suyagi) topildi. Chuqurchani uzunligi 60 sm, ko‘ndalangi 25 sm. Uning ichida kul yoki olov izlari uchratilmadi. Obyektning funksiyasi ochilmay qoldi (44-rasm).

Altar-o‘choq №35 tepalikning g‘arbiy tomonidan topildi. Noaniq shaklda, katta maydonni qora kul qoplagan. Altar-35 ning kullari bilan birgalikda bir qancha sopol parchali ham topildi. Bu sopol juda nafis bo‘lib, kulolchilik charxida

ishlangan. Sopol bo'laklari antik davrning birinchi va ikkinchi bosqichiga oid. Bu sopollarning tashqi qismi ham, ichki qismi ham angoblangan.

Kelgusi mavsumda ushbu obyekt sinchkovlik bilan o'rganiladi. Hozircha uni ustiga bo'z mato va salafan yopib, tuproq tashlab yopib qo'yildi (46-rasm).

Altar-o'choq №37 yodgorlikni janubi-g'arbida joylashgan bo'lib, to'g'ri to'rt burchak shaklli. Uning bort devorining sharqiy va janubiy tomonlari buzilib ketgan. Shimoliy va g'arbiy bortlari esa olovda kuygan qizil tuproq sifatida zo'rga ko'zga tashlanadi. O'rta maydonida kul izlari saqlangan (47-rasm).

Altar-o'choq №38 tepalikning markaziy qismida joylashgan sharqdan g'arbga tomon cho'zilgan to'rtburchak shaklida, qalin madaniy qatlam ustida qurilgan. Ushbu altar-o'choq yuqoridagi altar-o'choqlardan qurilishi jihatidan farq qiladi. Ya'ni altar-38 ikki kamerali va stenkali qilib qurilgan. Uni kuzatilganda ikki kameraligini payqash mumkin, lekin, uning janubiy borti buzilib ketgan. Davriy jihatdan so'nggi atik davrga tegishli. Kameralar ichi oppoq kulga to'la (48-rasm).

Altar-o'choq №39 tepalikning markazida joylashgan. Uning maydonini kalamushlar titib tashlagan, o'z vaqtida qo'sh kamerali bo'lgan, ularning birini o'lchami 16×20 sm, kamera bortining balandligi 22 sm. Kameralar og'zi g'arbga qaratilgan. Qo'shaloq altar oldidan ayol kishining bosh chanog'i ochildi. Uning saqlanishi juda yaxshi. Uni kelgusi mavsumda ochib o'rganish rejalashtirildi. Uning janubiy devori ostidan S-14 ga kuygan o'tin parchasi olinib, xitoyga analizga yuborildi (49-rasm).

Altar-o'choq №40 tepalikning shimoli-g'arbiy yonbag'rida, to'g'ri to'rtburchak shaklida, o'lchami 130×100 sm. Altar bort devori buzilib ketgan. Uning maydoni olovda kuyib qizarib ketgan, ana shu kuyindi yuzasi tuproq aralash kul bilan qoplangan. Altar to'liq ochilmadi, uni to'liq o'rganish kelguvsi mavsumga qoldirildi (50-rasm).

Altar-o'choq №41 tepalikning sharqiy, kun chiqar tomonidan topildi. U shunday bo'lgan edi: Tepalikning sharqiy chegarasida qazishmalar olib borish jarayonida tepalik ostiga yorib kirgan yo'lak uchratilib, uning ikki tomoni xomg'ishtli devor bilan o'ralgan, devor oraligi 120 sm, devor balandligi 160 sm,

ichi esa yumshoq tuproqqa to‘la yer osti xonaga kirish eshigi bo‘lib chiqdi. Yo‘lak 2 metrgacha ichkariga kirgach, janubga tomon kengayib, oqibat natijada yarim aylana shaklidagi yer osti xona bo‘lib chiqdi. Xonaning sharqiy tomoni xomg‘ishtdan tiklangan devor bilan o‘rab olingan. G‘isht devorning uzunligi 2 metr. Xonaga kirish eshigi to‘g‘risiga yana 1,5 metrgacha davom etib, qattiq qatlamga borib taqaladi. Endi yumshoq tuproq janubga tomon ovalsimon shaklda davom etadi. Demak, ushbu yer osti xona sun‘iy g‘or tipidagi rohibalar uchun yasalgan yer to‘la bo‘lishi mumkin. Sharqiy devor osti polidan yarim oy shaklida ichqariga kesib kirilgan shipiga qadar balandligi 160 sm. Yer osti xonaning shimoliy burchagi shipida stenkali altar – o‘choq ochildi. Uning kulxonasining tubidan xona poliga o‘pirilib tushgan oppoq kul qatlami va uning ichidan topilgan tiniq qizil angobli sopol parchasiga qaraganda, ushbu altar tepalikdagi eng qadimgi altarlardan biri ekanligidan dalolat beradi. Ammo, yer osti xona shipida osilib turgan ushbu altarni rohibalar dam olish xonasi bilan bevosita aloqasi bo‘lmagan. Chunki, davriy jihatdan altar yer osti xonadan qadimiydir. Xona ichidagi yumshoq qatlamdan qoramtil qizg‘ich angobli nafis sopol parchalari va so‘nggi antik va ilk o‘rta asrlarga tegishli keramika siniqlari uchratildi. Uning funksiyasiga kelganda, haqiqatda ushbu xona yozning jazirama issiq kunlarida sun‘iy g‘or tipida rohibalar uchun yasalgan yer to‘la bo‘lishi mumkin. Afsuski, ushbu obyektni ochish vaqtida uning tepa qismi namlik ta‘sirida ko‘z o‘ngimizda o‘pirib tushdi. Lekin, bu o‘pirilish altarga zarar yetkazmadi (51-rasm).

II.2. Uchtepa-2 obyektida topilgan toshdan ishlangan otashkadalar va ularning xarakteristikasi.

Ikkinchi guruh altarlarga toshdan ishlangan otashkadalar kiradi. Bu tosh otashkadalar xuddi altar o'choqlar singari otashparastlarning topinadigan, sig'inadigan va ibodat qiladigan joyi bo'lgan. Uchtepa-2 yodgorligida ham shunday tosh otashkadalar topildi. Ular 20 tani tashkil qiladi va ular quyidagilardir:

Tosh qurilma № -1. Atrofiga toshlar qo'yilgan 1-otashkada yodgorlikning janubiy qismida, janubi-sharqdan shimoli-g'arbga cho'zilgan uzunchoq tor oval shaklidagi toshlar qalashmasidan iborat bo'lib, 2-otashkadaga yonma yon joylashgan. Otashkada-1 ning toshlari bir dona hajmi jihatdan kattaroq bo'lgan maxsus tosh va uning yonlarida kichik hajmli toshlar to'g'ri to'rtburchakli qilib joylashtirib terib chiqilgan. Uning janubiy chegarasiga 1 dona yirik tosh yorg'uchoq terilgan. Tosh altar o'lchami 95×50 sm. Uning maydoni va tevarak atrofidan qizil va qoramtil angobli yupqa sopol parchalari uchratildi. Davriy sanasi milodiy 3-4 asrlarga tegishli (52-rasm).

Tosh qurilma №2 ibodatxona tepaligining janubiy chegarasida, tosh qurilma №1dan sharqqa tomon bir devor orqada, janubdan shimolga qaratib terilgan, oval shaklida, 9 ta tosh qalashmasidan tashkil topgan bo'lib, ularning 2 donasi singan. Toshlar orasida tosh yorg'uchoq va bir dona maxsus ishlangan qirrali moviy rangdagi hajmi jihatdan kattaroq bo'lgan maxsus tosh va uning yonlarida kichik hajmli toshlar mavjud. ham bor. Tosh altarning o'lchami 53×40 sm. Uning ham maydoni va tevarak atrofidan qizil va qoramtir angobli yupqa sopol parchalari uchratildi. Davriy sanasi milodiy III-IV asrlarga tegishli (53-rasm).

Tosh qurilma №3 ibodatxona tepaligining eng baland janubiy tomonidan, qalin yumshoq madaniy qatlam ustidan, 9 ta tosh qalashmasidan iborat oval shaklida altar topildi. O'lchami 50×70 sm. Toshlar orasida tosh yorg'uchoq va kesib ishlov berilgan tosh parchalari ham uchratildi. Toshlarning hajmi ancha yirik. Toshlar maxsus terilgan bo'lib, moviy kesilgan tosh va kichik hajmli oq rangli toshlar markazda, qolgan toshlar esa aylana shaklda joylashtirilgan. Davriy sanasi ilk o'rta asrlarga tegishli (54-rasm).

Tosh qurilma №4 ibodtxona tepaligining sharqiy tomonida, sharqiy altar-o'choqlar guruhi qatorida, tor oval shaklida uchratildi. Bu tosh altar ham 9 ta toshlar qalashmasidan iborat bo'lib, uning 2 ta toshi qazish paytida o'z o'rnidan qo'zg'atilgan, ularning izlari yaqqol ko'zga tashlanadi. Ushbu tosh qurilma sharq tomonida 3-altar-o'chog'i bilan, shimol tomonidan 5-tosh otashkada bilan va shimoli-g'arbiy tomondan esa altar 1 va altar 2 o'choqlari bilan yonma-yon holatda joylashgan. Qurilmani o'lchami 45×80 sm. Toshlar orasida ishlov berilgan va yorg'uchoqlar ham uchratiladi (55-rasm).

Tosh qurilma №5 ibodatxona tepaligining sharqiy tomonida, sharqiy altar-o'choqlar guruhi qatorida, ichi bo'sh aylana shaklida uchratildi. O'lchami 50×70 sm. Unga sharq tomondan yopishtirib oval shaklida tosh qurilma barpo etilgan. U 18 ta toshlar qalashmasidan iborat. Uning o'lchami ham 50×70 sm. Bularni qo'shloq tosh altar deb atash mumkin (56-rasm).

Tosh qurilma №6 yuqoridagi qo'shloq tosh altarning g'arbida, qalinligi 1 metr ga yaqin madaniy qatlam ustida joylashgan. Oval shaklida, o'lchami 55×80 sm, maydoni bo'sh. U 11 ta maxsus daryodan olib kelingan toshlari qalashmasidan iborat. Toshlar orasida yorg'uchoq tosh parchasi va ishlov berilgan toshlar uchraydi. Uning toshlari to'liq saqlanmagan, faqatgina shimol va janub tomondagi toshlari saqlangan. 6-tosh qurilmani joylashish o'rnini hayratlanarli bo'lib, aynan u joylashgan balandlikda ob'yektni aylana shaklda xuddi shunday toshlar majmui joylashgan. Uning davriy sanasi ilk o'rta asrlarga tegishlidir (57-rasm).

Tosh qurilma № 7 ibodatxona tepaligining sharqiy qismida, janubdan shimolga qaratilgan oval shaklida, o'lchami 100×60 sm. Bu tosh altar boshqalardan farq qilib, ichi bo'shliq emas, aksincha zich qilib toshlar terib chiqilgan. Toshlarning soni yuqoridagilardan uch barobar ko'p, ya'ni 27 ta toshlar qalashmasidan iborat. Bu toshlar orasida tosh yorg'uchoq, sxematik tosh mabudalar uchraydi. 7-tosh otashkada janubi-g'arb tomondan 8-altar-o'choq bilan, janub tomondan esa 8-tosh otashkada bilan va janubi-sharqdan 9-altar-o'choq bilan yonma-yon joylashgandir. Uning davriy sanasi ilk o'rta asrlarga tegishli (58-rasm).

Tosh qurilma №8 tosh qurilma №7 ning gʻarbiy ostidan topildi. Uning davriy sanasi qadimiyroq, koʻrinishi oval shaklida. Aylanasini oʻrab olgan toshlar soni koʻproq, yaʼni 18ta tosh ovalni tashkil etgan. Oval oʻlchami 90×60 sm. Oʻrta maydoni boʻm-boʻsh. 8-tosh qurilma janubi-gʻarb tomondan 8-altar-oʻchoq va janubi-sharqdan 9-altar-oʻchoq bilan yonma-yon joylashgandir. Undagi toshlar hajmi jihatidan yirikroq boʻlib, ular maxsus terib chiqilgan (59-rasm).

Tosh qurilma №9 ibodatxona tepaligining sharqiy otsekining shimoli-gʻarbiy burchagida joylashgan. Bu tosh qurilma yuqoridagilardan farq qilib, bir qarashda kvadrat shaklida. Oʻlchami 72×54 sm. Undagi toshlar bir-birida zich holda joylashgan. Ularning soni 22 donani tashkil qiladi. Undagi toshlar aylana devori toshlari hajmi jihatidan yirikroq boʻlib ularning orasidagi toshlar esa nisbatan kichikroqdir. Ushbu tosh otashkada sharq tomonida ham paxsa devor joylashgan va uning gʻarb tomonida esa 9-altar-oʻchoq joylashgan. Diqqat bilan qaralsa, tosh qalashmalarning sharqiy boʻlagi 7 ta yirik toshlar zanjiridan iborat oval tosh altarni eslatadi. Unga gʻarb tomondan yopishtirib yana bir oval shaklidagi altar qurilgan. Demak, koʻz oʻngimizda №9 qurilma ostida qoʻsholoq tosh altar gavdalanadi. Ushbu tosh otashkada yodgorlikning sharqiy qismidagi paxsa devori bilan yonma-yon joylashgan. Davriy jihatdan soʻngi antik davrga tegishli boʻlishi kerak (60-rasm).

Tosh qurilma №10 ibodatxona tepaligining sharqiy tomonida, markaziy xomgʻisht devorning 30 sm. ostida va 8-altar-oʻchoqdan esa 1 metr yuqorida ochildi. Oval shaklli tosh uyumi qalin madaniy qatlam ustiga qurilgan 5ta toshdan iborat. Shularning 1 tasi yirikroq va qolgan 4 ta tosh nisbatan kichikroq hajmdagi toshlardir. Oʻlchami 18×25 sm. Qalashmani markaziy qismini bir tomoni olov izli katta tosh egallagan. Toshlardan biri ishchi maydoni aniq boʻlgan tosh sandon boʻlib chiqdi (61-rasm).

Tosh qurilma №11 nomi ostida tepalikning shimol tomonidan topilgan tartibsiz toshlar uyumidan iborat qurilma koʻzda tutildi. Bu tosh otashkadaning toshlari ikki xil boʻlib, birinchisi markazda joylashgan paxsa devoridan sharq tomonga qarab uzun yoʻlak tarzida joylashgan. Bu toshlarda aniq bir shakl yoʻq.

Ikkinchisi aynan o'sha uzun yo'lakli toshlardan 1,5 metr shimolda joylashgan. ular bir xil chiziqli joylashgan bo'lib, ularning soni 5 donani tashkil qiladi. Shulardan 3 donasini yesilib shakl berilgan. Qolgan ikkitasiga shakl berilmagan. Shu 5 dona toshning 3 tasi to'q ko'k rangdadir. Ular egallagan maydon 135×145 sm (62-rasm).

Tosh qurilma №12 tepalikning shimoliy-sharqiy tomonidan topilgan. Tosh otashkada-12 ning toshlari yaxshi saqlangan bo'lib, uning shakli yuqoridagi otashkadalar kabi ovalsimondir. O'lchami 100×60 sm. Tosh qurilmani o'rtasi bo'shliq. Altar qalin madaniy qatlam ustiga qurilgan. Demak, uning davriy sanasi ilk o'rta asrlarga tegishli. Eng qiziqarli tomoni ushbu tosh otashkadaning balandligi yuqoridagi 6 va 7-tosh otashkalarni balandligi bilan bir xil (63-rasm).

Tosh qurilma №13 tepalikning shimolida, yuqorida tavsif etilgan tosh altardan taxminan 1 m. g'arbda joylashgan. Oval shaklida, o'lchami 65×150 sm. Tosh otashkada-13 ning toshlari yaxshi saqlangan bo'lib, uning shaklini aniqlashning imkoni bo'lmadi. Uning saqlangan toshlarini soni 23 tani bo'lib, ularning hajmi nisbatan kichikroqdir. Bu toshlarni ichida maxsus ishlov berilganlari uchratilmadi. Tosh otashkadani toshlari janub qismidagi toshlar zich holda saqlangan, qolgan qismlaridagi toshlar esa to'liq holatda bizgacha saqlanmagan. Qalin madaniy qatlam ustiga o'rnatilgan. O'rtasi bo'shliq. Davriy sanasi ilk o'rta asrlarga tegishli (64-rasm).

Tosh qurilma №14 ibodatxona markaziy devorining ustiga qurilgan, to'g'ri to'rtburchak shaklida, o'lchami 50×80 sm, janubdan shimolga qaratib qurilgan. 14-tosh otashkadaning shakli to'g'ri to'rtburchakdir. Ushbu tosh otashkadaning shimoliy va janubiy qismlarida toshlar saqlangan, g'arbiy va sharqiy qism toshlari esa saqlanmagan. Uning saqlangan toshlar soni 15 tani tashkil etadi. Uning toshlari maxsus olib kelinib terilgan toshlardir, hajm jihatidan nisbatan kattaroqdir. Tosh otashkadaning markaziy qismida yakka holda bir tosh qo'yilgan bo'lib, uning rangi to'q ko'kdir. Uni har tarafidan yo'nilib shakl berilgan. Hozirgi kunda shu markazda joylashgan toshning janubi-sharqiy qismi singan. Tosh altarning o'rtasi bo'shliq, ammo uning ichidan qopqora sopol qozon topildi. Ammo, ushbu altar doirasida kul izlari uchratilmadi (65-rasm).

Tosh qurilma №15 tepalikning shimoli-gʻarbiy burchagidan, tepalikning ustki qismidan topildi. Tosh otashkada-15 16-tosh otashkadaning janubi-sharqiy qismida va transheyanning gʻarbida joylashgan. Tosh qurilma toʻgʻri toʻrtburchak shaklida, uning gʻarbiy tomonidagi toshlar saqlangan Oʻlchami 70×50 sm. Oʻrtasi boʻshliq. Uning saqlangan toshlarini soni 5 tani tashkil qiladi. Bu toshlarni ichida maxsus ishlov berilgan bir dona tosh bor. Qolgan toshlarda bunday ishlovlar kuzatilmaydi. Tosh qurilmaning davriy sanasi ilk oʻrta asrlarga tegishli (66-Rasm).

Tosh qurilma №16 tepalikning shimoli-gʻarbiy, 15-tosh otashkadaning shimoli-sharqida va transheyanning gʻarbida joylashgan. Uning toshlari yaxshi saqlangan boʻlsada, toshlar orasi zich emas, altarning oʻrtasi boʻshliq, shimoliy chegarasi buzilgan, u tomonning toshlari hatto yoʻqolgan. Ushbu tosh qurilmani saqlangan toshlari soni 16 tani tashkil etadi. Toshlarni hajmi bir-biridan farq qiladi. Ularning ichida faqatgina bir dona toshning qoq oʻrtasidan tekis boʻlib ishlov berilgan. Ishlov berilgan tosh 16-tosh otashkadaning janubi-gʻarbida joylashgan. Bu yerdan topilgan sopol parchalari tosh altarni ilk oʻrta asrlar davriga tegishli ekanligidan dalolat beradi. Qurilma janubi-gʻarbdan sharq tomonga oqqan, oval shaklida, uning oʻlchami 170×82 sm (67-rasm).

Tosh qurilma №17 ibodatxonaning gʻarbiy tomonida, Altar-24 ning janubiy qismida va shimol va sharqdan paxsa devorlari bilan yonma-yonda joylashgan. tepalikka koʻtariluvchi pandusning ostidan topildi. Kengligi 30 sm, uzunasi 170 smgacha davom etgan tosh terilgan maydon ochildi. Uni aniq shakli hozircha aniqlanmagan, funksiyasi ham nomaʼlum qurilma. Ularning hajmi deyarli bir-biriga yaqin va zich joylashgan. Bu toshlarni ichida kesilib ishlov berilganlari ham uchraydi. Altar-24 va tosh otashkada-17 larni paxsa devorlari kesishgan nuqtada joylashganligi insonni diqqatini oʻziga tortadigan jihat hisoblanadi. Davriy jihatdan ibodatxonaning ilk davrlariga tegishli boʻlsa kerak. Chunki, bu tosh maydoncha ustidan terib olingan sopollar tiniq qizil angobli, antiq davriga tegishlidir (68-rasm).

Tosh qurilma №18 tepalikning janubi-sharqiy burchagi chegarasida, noaniq shaklda, yerga terilgan tosh maydoncha topildi. Uning shimol va gʻarbiy qismi paxsa-gʻisht aralash devor ostiga kirib borgan, yaʼni uning ustiga paxsa devor bosilgan. Ularning strukturasi shu narsa koʻrinadiki uning toshlari nisbatan boshqa qurilmaning toshlaridan kichikroq boʻlib, bir-biriga juda yaqin va zich joylashgan. Ularning orasida maxsus ishlov berilgan toshlar uchratilmadi Tosh qurilma maydoni va tevarak-atrofida uchratilgan sapol parchalariga koʻra (qoramtil angobli keramika) ushbu qurilma milodiy III-IV asrlarga tegishli boʻlishi mumkin (69-rasm).

Tosh qurilma №19 tepalikning janubiy bagʻrida joylashgan. Tartibsiz yotgan tosh uyumi atigi 5ta tosh qalashmasidan iborat tosh otashkada altar-27 ga yaqin joyda yaʼni uning sharqiy qismida joylashgan. Uning uning shaklini aniqlashning imkoni boʻlmadi. Uning toshlarining 4 donasi yirik toshlardir, qolgan 1 tasi nisbatan kichik hajmli toshdir. Bu toshlarning orasida maxsus ishlov berilgan, kesilgan toshlar uchratilmadi. Hozircha uning davri va shakli aniqlanmadi (70-rasm).

Tosh qurilma №20 tepalikning markaziy maydonida joylashgan. Bu tosh qurilma altar-38 ga yaqin joyda yaʼni uning janubiy qismida, altar-oʻchoq №27 ni shimoliy burchagidan, undan balandroqda yarim oval shaklida (sharqdan gʻarbga choʻzilgan) bir qator qumtoshlardan yasalgan. Kurilma maydoni boʻsh. Uni №20 ostidagi tosh qurilma deb atadik. Tosh qurilmaning toshlari orasida Uning davriy sanasi ilk oʻrta asrlarga tegishli boʻlishi kerak (71- Rasm).

Shunday qilib, otashparastlar ibodatxonasi sifatida oʻrganayotgan Uchtepa-2 obyektidan yuqorida birma-bir tavsif etganimizdek, 40 ta altar-oʻchoqlar, 5 ta qabr va 20 ta tosh qurilma tipidagi altarlar topildi. Ular ibodatxonaning markaziy maydoni va uning tevarak-atrofidagi xonalarda joylashgan. Ularning baʼzilari ibodatxona maydonini oʻrab olgan mirza devorlar tashqarisida ham uchratildi. Ular obyekt stratigrafiyasida kuzatilgan ibodatxonaning uch qurilish bosqichiga, yaʼni antik, soʻnggi antik va ilk oʻrta asrlarga tegishli boʻlib, uni oʻrganish hali

nihoyasiga yetkazilmagan. Obyekt usti maxsus qurilma bilan yopilgach, ibodatxonani ilmiy o'rganish davom etadi.

II.3. Ibodatxona harobalari maydonida uchratilgan qabrlar tavsifi

Ibodatxona hududiy doirasida 5ta qabrlar ochildi. Ulardan biri tepalikning markaziy qismidan, reper nuqtasidan 1,5 m. chuqurlikdan, yong'inda kuygan kul aralash tuproq ostidan topildi. Ushbu qabr shartli №21 bilan hisobga olindi. Aslida u ibodatxona maydonidan topilgan qabr №1 edi (72-rasm). Qabrga balog'at yoshiga yetmagan, taxminan 16-17 yasharli rohiba ko'milgan. Rohiba boshi bilan shimolga qaratib, chalqanchasiga yotqizilgan. Skeletning uzunligi bosh chanoqsiz 1 metr. Chunki, skeletning bosh chanog'i butunicha topilmadi, faqat bosh chanoqning 2ta mayda parchasi topildi. Bo'yin umurtqa suyagining o'tkir predmet bilan chopilgan iziga qaraganda, arablar bosqini vaqtida o'z diniga sodiq qolgan otashparast rohiba kallasi Qutayba lashkari tomonidan uzib tashlangan. Bosqinchilar ibodatxonani yoqib ketgach (yong'in olov izlari saqlangan), ibodatxona jamoasi uni o'z urf-odatlariga ko'ra shahid etilgan joyning o'ziga ko'mishgan ko'rinadi. Marxuma skeleti o'ng tomonida zardushtiylikda muqaddas hisoblangan itning oyoq-qo'l, kurak, umurtqa, taz va bosh chanog'ining parchalari qalashib yotar edi. It suyaklari orasida bitta qayroqtoshning bo'lagi, skeletning oyoq tomonidan sopol parchasi, ya'ni sopol kosaning ostki qismi (donnaya chast) topildi. Skelet toz suyagi yaqinidan charm tasma-sining temir to'qasi topildi. Demak, rohiba kafansiz, o'z kiyimi bilan ko'milgan. Qabrdan boshqa ashyoviy dalillar topilmadi. Chunki, bu qabr ezgulik tangrisi Axuramazdaga umrbod xizmat etish uchun o'zini topshirgan rohiba qabri edi. Rohibaning it bilan yonma-yon bir qabrga birga ko'milishi itning egasiga vafodorligini anglatga kerak.

23 raqam ostida navbatdagi (qabr №2) qabr ochildi (73-rasm). Bu qabr itga tegishli bo'lib, u ham ibodatxonaning markaziy qismidan, №21 qabrning janubi-shrqidan topildi. It suyaklarining joylashishiga ko'ra, parchalanib ketgan uning bosh chanog'i shimolga, oyoqlari janubga qaratib ko'milgan. Skeletga tegishli barcha suyaklar yomon saqlanishiga qaramay, o'z o'rnida. Bo'yi 90 sm. Uning ko'krak qismidan qattiq zanglagan temir pichoq topildi. Skeletning shimoli-sharqiy

tomonidan 3 ta sopol idishlar (konus shaklidagi disksimon oyoqli bakal, kalta bo'g'izli sharsimon ko'za va sharsimon qorinli xurmacha) topildi. Ularning ikkitasi (bakal va xurmacha) tiniq qizil rangda angoblangan. Sopollar it skeleti yotgan yer satxidan yuqoriroqdan topildi. Extimol sopollar it qabriga tegishli bo'lmashligi ham mumkin. Chunki, sopollar sharqiy tomonidan, bir xil balandlikda yana bir odam qabri ochila boshlandi. Uni 39-nomer ostida (qabr№5) ochishni kelgusi mavsumga qoldirildi.

28 raqam ostida navbatdagi (kabr №3) qabr ochildi (74-rasm). Ushbu qabr tepalikning janubi-g'arbidan topildi. Qabrda boshi shimoli-g'arbga qaratib, chalqanchasiga yotqizilgan 18-20 yoshli ayol yotibdi. Qabr to'g'ri to'rtburchakli o'ra shaklida qozilgan, o'lchami 80×130 sm. Marxumanining taz suyaklari yaqiniga sirti qopqorayib ketgan sopol qozon qo'yilgan. Sopol qozonning chap tomonida qurbonlikka so'yilgan hayvon suyaklari-kurak suyagi, qabirg'alar, qo'l suyaklari, ular orasida temir pichoq topildi. Marxuma kafansiz, o'z qiyimi bilan ko'milgan. Shu bois, uning bel qismidan tasmasining temirdan ishlangan to'qasi topildi. Qabrning shimol tomoni ikki qatorli tosh g'ov bilan o'rab olingan.

36 raqam ostida navbatdagi (qabr №4) qabr ochildi (75-rasm). Ushbu qabr tepalikning shimoli-g'arbiy tomonida, to'g'ri to'rtburchakli chuqurda, boshi g'arbga qaratilgan holda uchratildi. Bosh chanog'i, umurtqa, qabirga va toz suyaklari qabrda uchratilmadi. Ammo, uning oyoq suyaklari anatomik tartibda bo'lib, ularning oraligida 2 ta qabirg'a suyagi, oyoq panja suyaklari sochilib yotibdi. Uning oyoq suyaklarining yotish holatiga qaraganda, dafinaning shimolga tomon og'ib yotganligi yaqqol ko'zga tashlanadi. Toz suyaklarining o'rni qonga botirilgandek qizil rangda qotib qolgan. Qon izlari o'ng boldir suyagi shimolida ham uchraydi. Qabrda hech qanday na shaxsiy, na yaqinlari tomonidan qo'yilgan ashyoviy dalillar uchratilmadi. Qabr egasi arablar bosqini vaqtida qandaydir daxshatli o'lim topgan. Uning parchalangan tanasining bir qismi chuqurga tashlanib ko'mib yuborilgan.

Ikkinchi bob bo‘chiya xulosalar.

Ushbu bobda topilgan ko‘plab altar-o‘choqlar, tosh qurilma va qabrlarning qayd etilishi va aynan Uchtepa-2 arxeologik obyektidan markaziy otashparastlik ibodatxonasining topilishi shu yerlik aholining qadimda otashparastlik diniga e‘tiqod qilishganligi ko‘rsatmoqda. Bunday ibodatxona nafaqat Farg‘ona vodiysida, balki O‘zbekiston hududida ham juda kam uchraydigan topilmadir. Uchtepa-2 obyektida hozirga qadar 40 dan ortiq altar-o‘choqlar topildi. Har bir usti ochilgan altar-o‘choqni tabiiy eksponat holatiga keltirmaguncha (usti maxsus maslama bilan yopilgunigacha) sho‘rlanish va qishki namgarchiliklardan saqlashni taqozo etadi. Shuning vaqtinchalik saqlab turish maqsadida uning qalin mato va plastik qog‘oz yopib, shundan so‘ng tuproq bilan ko‘mib chiqildi.

Obyektdan altar-ochoq va tosh qurilmadan tashqari ibodatxona rohibalarining jasadlari ham topildi. Rohibalarning skaletlaridan shuni xulosa qilishimiz mumkinki, Qutaybaning qo‘shinlari rohibalarini shavqatsizlarcha halok qilgan va ibodatxonani yoqib yoqib yuborgan.

Obyektni o‘rganish hali nihoyasiga yetgani yo‘q. Keyingi tadqiqotlar davomida shu ibodatxonani bosh rohibasini topishga bel bog‘laganmiz.

III-bob. Uchtepa-2 obyektidan topilgan ashyoviy dalillar va ularning tavsifiy xarakteristikasi va xronologik sanasi.

III.1. Keramika va uning tiplari.

Insoniyat bir-biri bilan qadimdan ming yillar mobaynida o‘zaro savdo, madaniy, iqtisodiy yoki boshqacha aytganda qo‘shnichilik aloqalari olib borgan. Bular natijasida xalqlar o‘zaro muloqotda bo‘lganlar. Mol-tovar ayirboshlash qilgan, bir-birlarini ham iqtisodiy ham madaniy jihatdan boyitganlar. Buning uchun ular savdo-sotiq aloqalariga mo‘ljallab mahsulotlar yetishtirganlar. Ushbu jihatlarning rivojlanishida jug‘rofiy omillar muhim ahamiyat kasb etgan. Arxeologik va yozma manbalar Farg‘ona vodiysida mil. avv VI – milodiy VIII asrlarda bir necha yirik shaharlar bo‘lganligini ko‘rsatadi. Bular Elatan, Sho‘rabashat, Ershi, Koson, Quva, Munchoqtepa, Axsikent, O‘zgan, Xaylom, Vanqos, Xo‘jand, O‘ratepa va boshqalardir. Ushbu shaharlarni paydo bo‘lishi, rivojlanishi va inqirozga yuz tutishi jarayonlari turli tarixiy davrlarga to‘g‘ri kelgan va bular arxeologik qazishmalar yo‘li bilan ma’lum darajada aniqlangan.

Maskur dissertatsiyada ilmiy tahlil qilish obyekti qilib olingan Uchtepa-2 yodgorligida olib borilgan dala tadqiqotlarida hunarmandchilikning turli xil turlariga mansub bo‘lgan ashyoviy materiallar qo‘lga kiritilgan bo‘lib, ular orasida ko‘proq uchraydigani kulolchilik mahsulotlaridir.

Kulolchilik buyumlari eng ko‘p tarqalgan arxeologik ashyoviy manba hisoblanadi. Uni ishlab chiqarish usuliga iqtisodiy, siyosiy o‘zgarishlar ham ta’sir qiladi. Yunon-makedonlarning sharqqa yurishi jahon madaniyatida muhim iz qoldirdi. Bu O‘rta Osiyo kulolchiligida ham bir qancha muhim o‘zgarishlar yuz berib, kulolchilikda yangi tipdagi buyumlarning shakllarini ishlab chiqarish markazlari paydo bo‘lishiga turtki bo‘ldi.¹¹ Bu o‘zgarishlar albatta, sopol ishlab chiqarish texnologiyasiga ham ta’sir etmay qolmadi. Mana shu jarayonlar antik va

¹¹ O‘zbekiston-qadimgi va o‘rta asrlarda. Respublika yosh tarixchi olimlari anjumanining ma’ruzalari bayoni. Jalolova .S Samarqand 1992.

ilk o'rta asr davriga tegishli bo'lgan Uchtepa-2 yodgorligidan topilgan sopol idishlarda o'z aksini topgan.

Dala tadqiqotlar davrida topilgan ashyoviy manbalari ya'ni kulolchilik mahsulotlari Uchtepa-2 yodgorligini uch davrda ya'ni ilk antik davr, so'ngi antik davr va ilk o'rta asrlarda hayot davom etganligidan dalolat beradi. Kishilarning kundalik hayotida ishlatgan Uchtepa-2 yodgorligidan topilgan sopol buyumlari shakllari, vazifalari qarab to'rt xil tipga bo'lishimiz mumkin.

A). Dasturxon idishlari.

Dasturxon idishlari asosan vazalardan iborat bo'lib, ular oliy tabaqa shaxslar, mehmonlar uchun dasturxon bezatishda, noz-ne'matlar va quruq-ho'l me'valar uchun ishlatilgan.


Vaza. Vaza meva, gul va boshqa narsalar uchun ishlatiladigan badiiy buyumdur. Vazalar sopol, shisha, chinini, metall va boshqa xom ashyolardan turli shakllarda yasaladi. Bo'yama, o'yma, chizma va bo'rtma naqsh, tasvirlar bilan bezatiladi. Vaza tayyorlash va bezash antik davri san'atida muhim o'rin egallagan. Vazaga rassom naqsh, tasvir ishlagan, keyin qora lak bilan bo'yagan, qoliplar yordamida ham vazalar tayyorlangan. Yunonlarning bu san'ati Yevropada vazani tayyorlash va bezash san'ati uchun namuna bo'lib xizmat qilgan. O'rta Osiyoda ham yunonlar istilosidan keyin qadimdan vaza turi (ko'za, ko'ra, amfora va boshqa) tayyorlangan, ular naqsh, tasvirlar bilan bezatilgan, arablar istilosidan keyin uslublashtirilgan o'simliksimon va girih naqshlar bilangina bezalgan.¹²

Uchtepa -2 arxeologik yodgorligidan ham vaza idishlar topib o'rganildi. Ular quyidagilar: Bir butun va uchta idish fragmentlaridan iborat bo'lib (1-rasm), asosan konussimon shaklga ega. Idishlarni yuqori gardish qismi o'chamlari 17-20 sm.ni tashkil etsa, ostki tag qismlari 8-10 sm.ni, balandligi esa 14-16 sm.ni tashkil etadi. Barcha idishlar kulolchilik charxida tayyorlangan bo'lib, olovda pishirilishidan avval ichki va tashqi qismlari qizil bo'yoq bilan ranglangan. Idishlarning loyini

¹² O'zME. I-jild. Toshkent, 2000-yil.

tayyorlashda maydalangan qum qoʻshilgan, loy toʻq jigarrang tuproqdan tayyorlangan.

Bunday idishlar Fargʻona vodiysida antik davrga oid Qogʻay-Qorabuloq madaniyatlarini oʻrgangan N.Gorbonova, Elatan madaniyatini ilmiy tahlil etgan Yu.Zadneprovskiy, B.Matboboev, Norin daryosining chap sohilliridagi antik davr madaniyatlarini oʻrgangan S.Qudratov hamda Chilhujra shahar xarobalarini oʻrgangan A.Anorboyev va S.Baratovlarning ilmiy ishlarida uchratishmiz mumkin. Yuqoridagi mualliflar bu shakldagi idishlarni mil. avv. IV-II asrlar bilan davrlashgan. Bundan kelib chiqib Uchtepa-2 obyektidagi topilgan vazalar mil. avv. II-I asrlar bilan davrlash mumkin.





1-rasm. Vazalar jadvali

Dasturxon idishlari tarkibida kosalar, kichik hajmdagi xurmachalar va boshqalardan iborat. Ushbu tipdagi kulolchilik buyumlari kishilar har kungi turmush tarzida tayyor holatdagi oziq-ovqatlarni isteʼmol qilishda va ularni saqlashda ishlatilgandir.

Kosalar: Suyuqlik, turli taomlarga moʻljallangan uy-roʻzgʻor buyumi. Kosaning ogʻiz qismi keng, ichi chuqur va tag qismi torroq boʻladi. Kosalarning ichki qismi

bezaksiz, tashqi qismida ba'zan chizma naqshlar uchraydi. Kosalar hajmi jihatidan kosacha, nimkosa, miyona kosa va shokosalarga ajratiladi. Kosalar Uchtepa 2 keramika kompleksida ko'pchilikni tashkil etadi. Dastlab ular qo'lda loydan yasalgan, kulolchilik charxi paydo bo'lgandan keyin, ularning shakli takomillashib borgan. Uchtepa 2 obyektidan topilgan kosalarining barchasi kulolchilik charxida yasalgan. Quyida Uchtepa buloqmozor-2 obyektidan topilgan kosalardan namunalar:





2-rasm. Kosalar jadvali. Antik davr sopollari (1-bosqich)





3-rasm. Kosalar jadvali. Antik davr sopollari (2-bosqich)



4-rasm. Kosachalar jadvali. Antik davr sopollari (2-bosqich)

Xurmachalar yodgorliklarning keramika kompleksida eng ko‘p uchraydigan idish turi bo‘lib, qo‘lda, kulolchilik charxida yasalgan bo‘lishi mumkin. Ular ham ko‘zalar kabi sferik, sharsimon tanali, qisqa va uzun bo‘g‘izli, labi tashqariga qayrilgan, oval, to‘mtiq, uchburchak shaklda, ba’zilarini bo‘g‘zi aylanasi bo‘ylab bitta yoki bir necha parallel chiziqlar tortilgan, ba’zilarini bo‘g‘zi ostida lentasimon polosa ichi naqshlangan bo‘lishi mumkin. Xuddi ko‘zalar kabi sirti tiniq qizil, qoramtir qizil rangda angoblanishi ko‘zga tashlanadi. Xurmachalar dasturxon idishlar sirasiga kiradi, ularda suyuq ovqat, sut, qatiq maxsulotlari saqlanadi.




5-rasm. Xurmachalar jadvali. Antik davr sopollari (1-bosqich)

B).Oshxona idishlari.

Oshxona idishlari asosan qozonlar va togʻaralardan iborat boʻlib, kishilarning kundalik hayotida oziq-ovqat yaʼni taomlar pishirishda va meʼva sabzovotlarni taom tayyorlashda ishlatilgan.

Qozonlar taom pishirish, suv qaynatish va boshqa maqsadlarda ishlatiladi. Qozonlar choʻyan, mis, alyuminiy va boshqa metallardan tayyorlanadi. Qozonlarning qopqogʻi (tuvogʻi) metal yoki yogʻochdan yasaladi. Arxeologik tekshirishlar qadimdan Oʻzbekistonda sopol, tosh va bronza qozonlar boʻlganligini koʻrsatadi. Masalan: Katta Fargʻona kanali qazilganda mil.avv 1-mingyillik oxiriga mansub bronza qozon chiqqan. Namangan viloyati oʻlkashunoslik muzeyida Axsikatdan topilgan, milodning VI-VII asrlariga oid sopol qozon soqlanmoqda.

Qozonlarning shakli va oʻlchamiga qarab, doshqozon, osh qozon va kir qozon kabi turlari bor. Qozonning kichikrogʻi dekchi deb ataladi.¹³ Uchtepa 2 obyektining qozonlari esa sopoldan yasalgan. Quyidagi jadvalda uchtepa-2 obyektidan topilgan qozonlardan namunalar keltirilgan.



6-rasm. Qozonlar jadvali


¹³ Oʻzbekiston milliy ensiklopediyasi (2000-2005)

Uchtepa 2 obyektida tog‘aralar ikki xil shaklda uchraydi. Birinchisi – og‘zi keng va ochiq, tanasi sferasimon va konussimon bo‘lib, har ikkalasini ham tagdoni tekis yoki ovalsimon shaklida uchraydi. Labi tik, ichiga yoki tashqariga qayrilgan, tagdoni qalin, og‘ir qilib ishlanadi. Xo‘jalikda tog‘oralarning funksional vazifasi keng. Ular asosan kulolchilik charxisiz qo‘lda yasalgan.

V). Xo‘jalik idishlari.

Xo‘jalik idishlari asosan xumlar, katta hajmdagi xurmachalar, ko‘zalar va boshqalardan iboratdir. Xo‘jalik idishlari kishilar kundalik turmush tarzida g‘alladon, yo‘g‘-moy, sut va go‘sht mahsulotlarini saqlash uchun hamda suv va sut mahsulotlarni tashish uchun ishlatishgan.

Ko‘zalarning shakl-shamoyili rangbarang. Tanasining qorni asosan sferasimon, sharsimon, tagdoni og‘ziga nisbatan ikki barobar katta, tekis kesilgan, qisqa bo‘g‘izli va uzun bo‘g‘ishli, og‘zining labi tashqariga qayrilgan, uchburchak, oval, to‘mtoq shaklda, jo‘mrakli (kechki davr belgisi), jo‘mraksiz (ilk davr belgisi), bir dastali, qo‘shdastali, dastasini yuqori qismi ko‘za bo‘g‘ziga, pastki qismi qorin yelkasiga yopishtirilgan bo‘ladi. Ko‘zalarda kulol tamg‘asi, ba’zilarida bo‘g‘izi aylanasi bo‘ylab parallel chiziqlar tortilgan bo‘lishi, qo‘lda kulolchilik charxida yasalgan bo‘lishi mumkin. Antik davr ko‘zalarining sirti, bo‘g‘izining ichki qismi albatta angoblangan bo‘ladi. Ilk antik davr ko‘zalari tiniq qizg‘ich rangda, kechki davrdagilari qoramtir qizil rangda angoblanadi. Agar ko‘zalar kulolchilik charxida yasalsa, avvalo xushbichim, ichki sirtida charh izlari ko‘zga tashlanadi. Ko‘zalar ko‘proq uy-ro‘zg‘or va xo‘jalik ishlarida foydalaniladi. Quyidagi jadvalda uchtepa-2 obyektidan topilgan ko‘zalardan namunalar keltirilgan.



7-rasm. Koʻzalar jadvali. Antik davr sopollari (1-bosqich)



8-rasm. Koʻzalar jadvali. Antik davr sopollari (1-bosqich)

Xumlar asosan tuxumsimon shaklda boʻladi. U uch qismdan, yaʼni gorizontal kesilgan tekis tagdon (donsa), tuxumsimon tana va har xil shaklda tashqariga qayrilgan keng ogʻzi (venchik)dan iborat. Uning keng labi (venchik) sferasimon torayib boruvchi boʻgʻzi bilan qoʻshilib, tashqariga oval, uchburchak, toʻmtoq,

sferaviy shaklda qayrilib yakunlanadi. Xumlar qo'lda, kulolchilik charxisiz, yaxshi pishirilgan lentasimon loydan, loylar chokini bir-birlariga ulash yo'li bilan tayyorlanadi. Ularning tagdoni va og'iz labi alohida tayyorlanib, so'ng tanasiga yopishtiriladi.

Xumlarni tayyorlashda loyini gumuslashgan chirindi va sho'rlatuvchi moddalardan suv yordamida (maxsus yasalgan rezervuarda toza oqin suv to'ldirib, soz tuproq tarkibidagi tuzdan) tozalanadi. Tozalangan loy qorishmasiga mayda qum va yorg'uchoqdan o'tkazilgan sopol kukuni (shamot) aralashtirilib, loyi obdon pishiriladi. Xumlar bir yarusli xumdonlarda, qalin tanali bo'lgani bois kuchli alanga yordamida uning terma texnika darajasi ta'minlanadi. Tanasining qirqimi 0,6-1 sm.gacha bo'lib, qirqim kesmasining o'rta qismiga yetarli darajada issiq harorat yetib bormagani bois qoramtir bo'ladi.

Xumlarni yasash jarayonida hayvon suyaklaridan tayyorlangan kulolchilik pichoqlari, dastakash, ya'ni yog'och taxtakachlar, dag'al mato parchalari yordamida ularning ichki va tashqi sirtini ishlash va pardozlash ishlari olib boriladi. Xumlarning bo'yi 1 metrdan kam bo'lmagani bois, ularni sekin aylanuvchi kulolchilik dastgoxida (stanokda) tayyorlash ham mumkin emas.

Xumlarda oilaning oziq-ovqat mahsulotlari, suv, kishi kayfiyatini ko'taruvchi ichimlik va boshqalar saqlanadi. O'zbek va tojik oilalarida non pishirish uchun ishlatiladigan tandirlar ham deyarli shu usulda tayyorlanadi. Lekin, tandir loyiga albatta hayvon junini qo'shish shart bo'lib, uning tanasiga yog'och taxtakash yordamida ishlov berish xum tayyorlashga nisbatan ikki-uch barobar yuqori bo'ladi. Quyidagi jadvalda Uchtepa-2 obyektidan topilgan xumlardan namunalar keltirilgan.



9-rasm. Xumlar jadvali. Ilk Oʻrta asrlar

III. 2. Tosh maʼbudalar, toshga ishlangan sanʼat va diniy kult predmetlari.

“Uchtepa 2” obyektni qazish jarayonida daryo qayroq toshlaridan yasalgan sanʼat asarlarining namunalari topildiki, ularning aksariyati ilohiy sanamlar va maʼbudalarga sigʻinish bilan bogʻliq. Masalan, yolpoq daryo qayroq toshidan odam qiyofasidagi sxematik sanam topilgan. Uning yuz tomoni bir tigʻli pichoq kabi yupqalashib borgan, orqa tomoni esa asta-sekin qalinlashib bogan. Bosh tomoni ustarada silliq qilib sochi olingan, peshonasi tomon biroz burtib, qabariq ostila koʻz va burun profili koʻza tashlanadi. Tanasida alifsimon harf izi bor. Tosh haykalcha tubi topinish xonasi toqchasiga oʻrnatish uchun kengroq (massivniy) va yassi tekis qilib ishlangan (ilovada 11-Rasm). Yana bir shunga oʻxshash tosh mabuda topildi. Uni odam qiyofasiga keltirish yakuniga yetkazilmagan (76-Rasm). Ammo, uni oyoqlari bor. Yuz tuzilishi birinchi maʼbuda kabi bosh tomoni qirra yuzli qilib ishlansada, haykaltarosh ishini oxiriga yetkazmagan, yoki oʻsha davr diniy

e'tiqodiga ko'ra, ma'bular odam basharasidagi shaklda tasvir etish man etilib, ularni siymolarini sxematik tarzda berish an'ana bo'lgan. Tarixshunoslikda bunday yondashuv islom dini bilan bog'lanib keladi. Lekin bu faktlar uning ildizlari musulmonchilikdan avvalroq paydo bo'lganligidan dalolat beradi.

“Uchtepa 2” obyektining tosh ma'budalar kompleksida yana bir necha xil san'at asarlari bo'lib, ulardan biri mergeli toshidan ayol ma'budasidir.

Toshga sharqiy o'rta yer dengizi tipidagi go'zal ayol surati yasalgan (77-Rasm). Boshida o'rama ro'mol, uning ustida disksimon ilohiylik belgisi o'rnatilgan. Bosh kallasining orqa tomonida ultra binafsha nurlarini sochib turgan quyosh surati chizilgan. Tanasi qimmatbaho toshlar bilan inkrustatsiyalashtirilgan. Boshqa bir tosh ma'budaning ikki qatlamli yaxlit toshga ishlangan bus-butun boshi tasvirlangan. Uning tor peshonasi ostida qalam qoshi va ko'zlari, ochiq og'zi ichidagi o'tkir tishlari ishlanib, tishlarga sarg'ich qizil rang berilib, pastki jag'i bo'rttirilmay, silliq yakun topgan. Rostmana ishlangan quloqlari yaqqol ko'zga tashlanadi (78-rasm).

Yana bir tosh ma'buda daryo qayroq toshiga odam qiyofasida sxematik tarzda ishlanib, u qadimgi musavvirning tasavvuriga ko'ra, sxematik ma'buda tanasiga rangli uslubda suv xudosining tasviri berilgan. U muqaddas buloq ichiga o'rnatilgan qandaydir taxti ravonda o'ltiribdi. Taxtiravon ostidagi buloqda baliq va boshqa jonzodlarning suzib yurishi tasvirlangan (79-Rasm). Tasvirda kattaroq baliqlar mayda baliqlarni orqasidan suzib borishlari, buloq suvini ikkinchi buloqqa oqib o'tish yo'llari ko'rsatilgan. Tasvirda mavjud manzara juda to'g'ri chizilibdi. Yana bir ser jilali toshga tog' echkisini surati chizilgan (80-Rasm).

Bularning barchasi Uchtepali qadimgi ajdodlarimiz nafis san'atidan guvohlik beradi. Suv bor joyda hayot qaynaydi, degan ajdodlar maqolining daliliy isbotidan yorqin namunalardir.

III. 3. Muqaddas tosh pichoqlar. “Uchtepa 2” obyektidan uning zardushtiylik ibodatxonasi ekanligidan guvohlik beruvchi muqaddas tosh pichoqlar topilgan (81-Rasm). Qadimgi ajdodlarimizning diniy tasavvurlariga ko'ra, navruz bayramida,

olamdan o'tgan aziz-avliyolar, qurbon hayiti kunlarida ajdodlar ruhlariga atab bir hayvonni qurbonlik qilib, ularni ruhlarini shod etish urf-odatlarini bizgacha saqlanib qolgan. Ana shu qurbonlik hayvonlarini so'yish uchun maxsus kassoblar, ularning maxsus qurbonlik pichoqlari, etdan terini ajratish mehnat qurollari bo'lgan. Ana shunday qurollardan 10dan ortig'ini "Uchtepa 2" obyektidan topildi. Obyekt garchi qadimgi davrga (mil. avv.II-milodiy VIII asr boshlariga) tegishli bo'lsada, muqaddas tosh pichoqlar orasida yanada qadimiylari ham bor edi. Tosh pichoqlar dafna bargi shaklida bo'lib, ularning ishchi qismi (tig' qismi) o'tkir va qayta ishlov berilgan. Antik davrga tegishli tosh pichoqlar chaqmoq toshdan yasalgan yupqa, sof dafna bargi shaklida, ba'zilar daryo qumtoshlaridan yasalgan kattaroq, ohir-vazmin, ishchi qirrasiga ishlov berilgan, uchinchi xillari yanada kattaroq, ishchi qismiga ezma (otjimniy) texnika yordamida ishlov berilgan. Ular toshga ishlov berish texnikasiga ko'ra eneolit va bronza davri mehnat qurollarini eslatadi. Demak, Utepa Buluqmozori juda qadimdan odamzod tomonidan o'zlashtirilgan. Bular Uchtepa Buluqmozor makonining tarixiy ildizlari juda chuqur, uni aniqlash kelgusi avlodlar zimmasiga tushadi.

III. 4. Muqaddas xauma ichimligini tayyorlash mehnat qurollari.

"Uchtepa 2"obyektini qazish vaqtida juda ko'p toshdan ishlangan yorg'uchoqlar topildi (ilovada 14-Rasm.). Ular arxeologiyada g'alla yanchish yorg'uchoqlari sifatida ta'riflanadi. Ularni zardushtiylilik ibodatxonasida uchratilishi, ulardan muqaddas xauma ichimligini tayyorlashda ham foydalanganligi ma'lum bo'ldi.

III. 5. Uchtepa arxeologik majmuasi yuzasidan olib borilgan yozma ma'lumotlar talqini va tahlili, ularning arxeologik lokalizatsiyasi.

Ma'lumki o'tmishda Turon, Movarounnahr, Turkiston, hozir O'zbekiston deb ataluvchi hudud, ya'ni ota makonimiz nafaqat Sharq, balki umumjahon sivilizatsiyasi beshiklaridan biri bo'lganligini butun jahon fani tan olgan. Bu qadimiy va tabarruk zamindan buyuk allomalar, fozilu fuzalolar, olimu - ulamolar, siyosatchilar, sarkardalar yetishib chiqqan. Diniy va dunyoviy ilmlarning ma'lum bir asoslari mana shu yurtda yaratilgan, sayqal topgan. Qadim-qadimdan ota yurtimizda dehqonchilik, hunarmandchilik, me'morchilik, shaharsozlik madaniyati yuksak bo'lganidan dalolat beruvchi misollarni sanab sanog'iga yetib bo'lmaydi.

Mashhur o'rta asr geograf va tarixchilari Yoqut Hamaviy ibn Fazlulloh al-Umariy, Abulqosim ibn Havqal, Ibrohim ibn Muhammad al-Istaxriy, Quddoma ibn Ja'far, At-Tabariy, Shixobiddin al-Muqaddasiy, Muhammad Al-Idrisiy, shuningdek, XIX-XX asr tadqiqotchilaridan sharqshunos olim, akademik V.V.Bartold, birinchi o'zbek tarixchi-tadqiqotchilaridan Is'hoqxon to'ra Ibrat kabilar izlanishlarida bayon qilingan o'rta asr shaharlari hamda ular o'rtasidagi masofalarini o'rganishda olib borilayotgan dala tadqiqot ishlarimiz qadimgi Xaylom shahri va uning nomi bilan atalgan daryoni aniqlash imkonini berdi. Bu asnoda ilmiy jamoamiz tarix fanlari doktori, akademik A.Asqarov boshchiligida ilmiy ekspeditsiyasiga chiqdik. Yo'l xaritamizdagi reja asosida XIX-XX asr tadqiqotchilarining ma'lumotlariga tayanib, Uchtepa-Namangan-To'raqo'rg'on-Kosonsoy-Mug'tepa, Qaytish esa Mug'tepa-Koson-Axsikat-Sartepa-Uchtepa yo'nalishida yo'lga otlandik.

Kosonsoy shahrida joylashgan qadimiy qal'a o'rni bo'lgan Mug'tepaga yetib borganimizda akademik A.Asqarov avvalgi barcha arxeologik tadqiqotlarni o'rganib chiqishlikni, ularni birlamchi yozma manbalar bilan qiyosiy solishtirib, Mug'tepani, xususan, Koson tarixini ilmiy asoslangan holda yoritish zarurligini uqtirdi. Shu bilan birga joriy yilda Mug'tepa arxeologik yodgorligida yana bir bora qazish ishlarini olib borish orqali shahar tarixini qayta o'rganish va u yerdagi Mug' – otashparastlar ibodatxonalari qoldiqlarini aniqlash, Kosoniy nisbasini olgan

allomalar to'g'risidagi birlamchi asarlarni topib o'rganish dolzarb vazifalardan biri ekanligini ta'kidlab o'tdi. Ekspeditsiyamiz davomida Kosondan Axsikatga tomon Kosonsoy soyi bo'ylab qadimiy manzillarda ham to'xtab o'tdik. Zero, Is'hoqxon to'ra Ibratning 1913 yil "Turkiston viloyatining gazetisi" 48-sonidagi maqolasida "... ammoki obodligida imoratlar ikki-uch qavat xishtin binolar bo'lub shahar intihosi Kosongacha borub, Koson ila Aysi o'rtasi qirq chaqirimlik yo'l hammasi imorot, bozor bo'lgan ekan. Hattoki bir echki Aysi tomiga yurmak bo'lsa to Kosongacha borur ekan tom ustidan yurub. Hammomlar, madrasalar saroylar yer tagidan yuradurg'on suv quburlari ko'b taajjublik narsalar hozir ham ko'rinib turadir"¹⁴— deyiladi. Haqiqatan o'rta asr geograf-tarixnavislari yozganlaridek, Shahri Koson (Koson daryosi) bo'ylab qadimiy manzillar qoldiqlari mavjud, ana shular oralab Axsikat shahriga suv olib kelingan, hozirda ham Aysi arig'ining borligi va yondosh ravishda yer ostidan ham suv inshooti tizimi ketganligi hamda to Axsikatgacha bo'lgan qishloqlardan chiqayotgan asori-atika, yer osti suv yo'li tizimi inshootlari, moziy manzillar qoldiqlari Ibrat yozganlarini tasdiqlaydi. Ibrat yozganidek "... keyingi ikki yuz yil ichida paydo bo'lgan qishloqdar", ya'ni, 1621 yilgi Axsikat zilzilasidan so'ng vujudga kelgan qishlog'lar hozir ham mavjud. Hozirga qadar yer osti suv yo'li qoldig'lari topilib turibdi. "Bobur Mirzo o'z asarida: "... Andijon suyi O'shdan kelur, Aysi suyi Kosondin kelur ...", deydi. Agar yer osti suv yo'li nazarda tutilsa, bu ham Eski Aysi hududidan topilgan. Ya'ni, Kosonsoydan yerosti sopol quvurlari orqali Axsikent suv keltirilgani ma'lum. Qolaversa, yer usti suvlari xususida fikr yuritiladigan bo'lsa ham, Kosonsoydan ariq orqali suv to'g'ri Axsikentga olib kelinganligining shohidi bo'ldik.

Sun'iy sug'orish uchun Kosonsoydan ariq va kanallar qazib chiqarilgan, Axsikat shahriga shunday ariqlar orqali suv keltirilgan. Shahar hududida ham suv ariqlarda oqqanligini arxeolog olimlardan A.Anorboev va I.Ahrorovlar ham o'z maqolalarida keltirganlar.

¹⁴ Is'hoqxon to'ra Ibrat 1913 y. "Turkiston viloyatining gazetisi" №48.

X asrga kelib shahar suv ta'minotida keskin o'zgarish sodir bo'lib, mutlaqo yangi tizim yaratiladi. Axsikatning muhandis-irrigatorlari puxta, pishiq ishlangan loyiha asosida yuz yillar mobaynida foydalanish mumkin bo'lgan yerosti suv inshooti tizimini yaratganliklari hatto "Boburnoma"da yozilgan. Shu kabi yo'l-yo'lakay munozara va muhokamalar bilan Kosondan Axsikatgacha yetib keldik. Masofa 5 farsaxdan ziyod ekan.

Navbatdagi yo'nalish Andijon viloyati Baliqchi tumanining sharqiy qismida joylashgan, endilikda manbalarda qayd etilgan qadimiy Vonkas yoki Vanket shahrining lokalizatsiyasi o'stida bordi. Aynan shu mavzeda Sartepa deb davlat muhofazasiga olingan arxeologik yodgorlik mavjud. Yodgorlikda hozirgacha muxtasar arxeologik izlanishlar olib borilmagan. Manbalarda Vanket bilan Xaylom oraligi aniq 7 farsax deb berilgan. Yodgorlikni obdon kuzatdik, har xil sopol buyumlar siniqlari, tosh va boshqa ashyolar sinchiklab tekshirildi.

Sartepadan Uchtepa arxeologik yodgorliklari tomon yo'lda davom etdik. Xaylom shahri esa hozirgi Uchtepa MFY hududiga masofa jihatidan va tasvirlangan chizgilarga mos tushmoqda.

Koson – Axsikat besh farsax, Axsikat – Vonkas yetti farsax, Vonkas - Xaylom uch farsax, Vonkasdan daryogacha (Qoradaryo) bo'lgan yo'l bir farsaxdan bir oz ziyod. Manbalardagi ma'lumotlarni taqqoslash, tahlil qilganimizda Xaylom daryosi (Norin) bilan Qoradaryo o'rtasidagi Miyon Ruvzon yoki Miyon Rudan muzofatining bosh shahri Xaylom Uchtepa yodgorliklari atrofida, Vonkas yoki Vanket shahri esa hozirgi Sartepa yodgorligi joylashgan hudud ekanligi ma'lum bo'ldi.

Hullas, ekspeditsiyamiz rejadagi ko'zlangan maqsadga to'la erishdi. Qadimgi Vonkas va Xaylom shaharlari o'rni aniqlandi. Galdagi ekspeditsiyamizda qadimgi Farg'ona iqlimi Miyon Ruvzon muzofatining birinchi shahri Uchtepa qishlog'i, Buloqmozor arxeologik yodgorliklar majmuasi bo'lishi mumkin degan hulosaga keldik. Kelgusida "Xaylom yozma manbalarda" rukni ostida turkum maqolalar yoritishni maqsad qilib qo'ydik.

Uchinchi bob bo'yicha xulosalar.

“Uchtepa 2” arxeologik yolg'orligida olib borilgan izlanishlar davomida yuqorida zikr etilganidek, juda katta miqdorda kulolchilik mahsulotlari-sopol idish parchalari uchratildi. Ular asosan kulolchilik charxida ishlangan bo'lib, ular orasida oshxona idishlari-sopol qozonlar, chavgin va tuvalar, xumlar qo'lda, kulolchilik charxisiz tayyorlanganligi aniqlandi. Sopol idishlar klassifikatsiyasi, ularning ishlatish vazifasiga ko'ra tiplarga, variantlarga bo'linishi o'rganildi. “Uchtepa 2” o'kti arxeologik kompleksida toshdan yasalgan iloh va ma'budalar ta'rifi, tasnifi, ularning san'at asarlari sifatida talqini, tahlili berildi. Arxeologik artefaktlar orasida obyekt xarakteriga xos toshdan ishlangan muqaddas pichoqlar tasnifi, ularning vazifasi va davriy sanalari aniqlandi. Kompleksda muqaddas ichimlik xauma tayyorlashda ishlatilgan menhnat qurollari-tosh yorg'uchoqlar haqida to'xtaldi. Xullas, obyektidan topilgan noyob ashyoviy dalillarning aksariyat ko'pchilligi haqida ma'lumotlar berildi. Topilmalar tarkibiga ko'ra ham ushbu yodgorlik antiq davrida gullab-yashnagan, ilk o'rta asrlarga kelganda arablar istilosi, yangi dinni-musulmonchilikni kirib kelishi bilan vayron etilgani, uning vayronalarida shaharga xos hayot qayta tiklanmagani bayon etildi.

IV Bob. Tajriba sinov ishlari: tahlil va xulosalar

4.1. Tarix ta'limida eksperimental darsni tashkil etish metodlari

19-mavzu	Qadimgi va o'rta asrlar davri madaniyati Farg'ona
----------	--

1.1. Ta'lim berish texnologiyasining modeli

Mashgʻulot vaqti- 2 soat	Talabalar soni: 27 ta (3-01 guruh)	
Mashgʻulot shakli	Amaliy mashgʻulot	
Amaliy mashgʻulot rejasi	1. Uchtepa Buloqmozor majmuasining hududiy joylashishi va uning topilish tarixi. 2. Uchtepa Buloqmozor majmuasining strategiyasi uning oʻrganish. 3. Uchtepa Buloqmozor majmuasida topilgan altar-oʻchoqlar va tosh otashkadalarning tuzilishi va diniy marosimlarining oʻziga xos tomonlari. 4. Uchtepa Buloqmozor yodgorligi Kulolchilik mahsulotlarining tavsifiy va davriy xarakteristikasi.	
Oʻquv mashgʻulotining maqsadi: Namangan viloyati Norin tumani Uchtepa qishlogʻida Ichki va xalqaro turizmning “Uchtepa Buloqmozor” majmuasi arxeologik yodgorliklarini oʻrgatish va asosiy xususiyatlari, ularning ilmiy ahamiyati talabalarga tushuntiriladi.		
Pedagogik vazifalar: - Uchtepa Buloqmozor majmuasining hududiy joylashishi va uning topilish tarixi haqida maʼlumot berish; Uchtepa Buloqmozor		Oʻquv faoliyati natijalari: Uchtepa Buloqmozor majmuasining hududiy joylashishi va uning topilish tarixi haqida bilimga ega boʻladilar; Uchtepa Buloqmozor

majmuasining strategiyasi haqida ma'lumot berish; Uchtepa Bulqmozor majmuasida topilgan altar-o'choqlar va tosh otashkadalarning tuzilishi va diniy marosimlarining o'ziga xos tomonlari haqida ma'lumot berish; Uchtepa Bulqmozor yodgorligi kulolchilik mahsulotlarining tavsifiy va davriy xarakteristikasi haqida ma'lumot berish;	majmuasining strategiyasi haqida ma'lumotga ega bo'ladilar; Uchtepa Bulqmozor majmuasida topilgan altar-o'choqlar va tosh otashkadalarning tuzilishi va diniy marosimlarining o'ziga xos tomonlari haqida ma'lumotga ega bo'ladilar; Uchtepa Bulqmozor yodgorligi kulolchilik mahsulotlarining tavsifiy va davriy xarakteristikasi haqida bilimga ega bo'ladilar.
<i>Ta'lim berish usullari</i>	"tushunchalar tahlili", xarita bilan ishlash, Keys-stadi texnologiyalari
<i>Ta'lim berish shakllari</i>	Ommaviy, kichik guruhlarda ishlash
<i>Ta'lim berish vositalari</i>	O'quv qo'llanma, proektor, xarita, tarixiy manbalar
<i>Ta'lim berish sharoiti</i>	O'TV bilan ishlashga moslashtirilgan auditoriya
<i>Monitoring va baholash</i>	Og'zaki nazorat: savol-javob

Amaliy mashg'ulotning texnologik xaritasi

Ish bosqichlari va vaqti	Faoliyat mazmuni	
	Ta'lim beruvchi	Ta'lim oluvchilar

1. Mavzuga kirish (15 daqiqqa)	Mashgʻulot mavzusi, rejasini eslatadi (1-ilova).	Tinglaydilar
2- bosqich Asosi y bosqich (55 daqiqqa)	Rower Point dasturi yordamida slaydlarni namoyish qilish 2.1. Asosiy siyosiy-ijtimoiy voqealarni izohlaydi (2-ilova) 2.2. Mahalliy manbalar haqida ma'lumot beradi (3-ilova) 2.3. Rossiya manbalari haqida ma'lumot beradi (4-ilova) 2.4. Rasmiy hujjatlar va ushbu davr to'g'risidagi adabiyotlar tahlilini amalga oshiradi (5-ilova)	Savollarga javob beradilar faol ishtirok etadilar. Topshiriqlarni bajaradilar
3.Yak uniy bosqich (10 daqiqqa)	3.1. Mavzu bo'yicha talabalarda yuzaga kelgan savollarga javob beradi, yakunlovchi xulosa qiladi. 3.2. Uy vazifasi: Tarixiy- badiiy adabiyotlarni o'qib kelish uchun tavsiya etadi.	Savollar beradilar. Topshiriqni bajaradilar, prezentatsiya qiladilar

19-mavzu: Qadimgi va oʻrta asrlar davri madaniyati. Fargʻona

Reja:

1. Uchtepa Buluqmozor majmuasining hududiy joylashishi va uning topilish tarixi.
2. Uchtepa Buluqmozor majmuasining strategiyasi uning oʻrganish.
3. Uchtepa Buluqmozor majmuasida topilgan altar-oʻchoqlar va tosh otashkadalarning tuzilishi va diniy marosimlarining oʻziga xos tomonlari.
4. Uchtepa Buluqmozor yodgorligi Kulolchilik mahsulotlarining tavsifiy va davriy harakteristikasi

Hamkorlikda oʻqitish texnologiyasi boʻyicha guruhlarda ishlash uchun oʻquv topshiriqlarini bajarish

Guruhlarda ishlash qoidasi

1. Sherigingizni diqqat bilan tinglang;
2. Guruh ishlarida oʻzaro faol ishtirok eting, berilgan topshiriqlarga javobgarlik bilan yondashing;
3. Agar yordam kerak boʻlsa, albatta murojaat qiling;
4. Agar sizdan yordam soʻrashsa, albatta yordam bering;
5. Guruhlar faoliyatining natijalarini baholashda hamma ishtirok etishi shart;
6. Boshqalarga oʻrgatish orqali oʻzimiz oʻrganamiz!
7. Biz bitta kemadamiz: yoki birgalikda suzib chiqamiz, yoki birgalikda choʻkib ketamiz!

Gur	Baholashning koʻrsatkich va mezonlari
------------	--

uh bo'yicha baholash mezonla riGuruhl ar	Javo b mazmuni	Taqd imot varog'ini ng to'ldirish sifati	Gur uh faolligi	Regla mentga amal qilish	Ja mi ballar
1.					
2.					
3.					

Uchtepa Bulqmozor majmuasida topilgan altar-o'choqlar va tosh otashkadalarning tuzilishi va diniy marosimlarining o'ziga xos tomonlari bo'yicha Hamkorlikda o'qitish texnologiyasi yordamida kichik guruhlariga mavzu yuzasidan topshiriqlar beriladi.

Uchtepa - 2 obyektining ochilishi va uni o'rganish.

1-guruh

Uchtepa Bulqmozor majmuasi Farg'ona vodiysi Namangan viloyati Norin tumanidagi Uchtepa qishlog'ida joylashgan Yodgorlik joylashgan hudud tabiiy iqlimi jihatidan keskin kontinentaldir. Yozi juda issiq, qishi esa sovuq. Iyulning o'rtacha harorati + 35 Yanvarda esa – 5 ni tashkil etadi. Yodgorlikning shimol tomonidan Markaziy Tyanshandan boshlanuvchi Norin daryosi (uning umumiy uzunligi 807 km) oqib o'tadi. Yodgorlik joylashgan hududning janubidan Sirdaryoning asosiy irmoqlaridan bo'lgan, Farg'ona tizmasining janubiy-sharqiy va Oloy tizmasining shimoliy yon bag'irlaridan boshlanadigan Tar va Qorag'ulja daryolarining qo'shilishidan hosil bo'ladigan Qoradaryo oqib o'tadi. Bu daryolarga to'xtalib o'tishimizdan maqsad aynan, yodgorlik joylashgan qishloq har ikki daryoga ham chegaradosh. Shimolda Norin daryosi, janubda esa Qoradaryo. Aynan yodgorlik joylashgan hududni biz **ikki daryo oraligi** deb bimalol aytishimiz mumkin. Bu ikki daryolarning shu hudud atroflaridan o'tganligi qadimdan bu

yerlik aholiga dehqonchilik qilish imkoniyatini bergan.

Uchtepa Buloqmozor majmuasida dastlabki tadqiqot ishlari 1963-yilda yilda akademik A. Asqarov boshchiligida boshlandi. O'sha paytda yodgorliklarning yoshini aniqlash maqsadida "uchtepa-1" yodgorligida strategifik shurf qazildi. Shurfning yuqori qatlamlarida ilk o'rta asrlar davri, pastki quyi qatlamlaridan antik davriga tegishli sopol parchalari chiqaboshladi. Shurf 2 metr chuqurlikkacha qazildi. Antik davr qatlamining yuqori qismidan qoramtir angobli sopol parchalari, uning quyi qatlamlaridan tiniq qizil angobli sopol parchalari uchratila boshlandi. Shurf materikkacha yetkazilmay, qazishma ishlarining uchunchi kuni qazishma ishlarini to'xtatishga to'g'ri kelgan. Chunki, yodgorlikni shurflash shaxsiy tashubbus bo'lib, uni davom ettirishga katta mablag' sarflash zaruriyati va bunga davlat tominidan rasmiy ruxsatnoma bo'lishini talab qilar edi.

O'sha kezlarda "Uchtepa-2" yodgorligida arxeologik shurf solish zarurati bo'lmagan. Ammo, uning saqlanish xolati, yer satxidan 8-10 m. balandligi, uning tepasida xech bir arxeologik ertefaktlar yoki biror narsaga ishora etuvchi belgining ko'zga tashlanmasligi, uni hukmdor mozorqo'rg'oni sifatida talqin etishni taqozo etar edi. Bunday yodgorlikda arxeologik qazishmalar boshlandimi, uni oxirigacha yetkazish kerak edi. Chunki, islomga qadar vafot etgan kishining hayotlik davrida jamiyatda tutgan mavqeyiga qarab ma'lum bir qism boyligi bilan ko'mish, kasbi-koriga qarab artefaktlar qo'shib ko'mish an'anaga aylangan bo'lib, buni xisobga lishlik arxeolog uchun zarur edi. Qazilma ishlari olib borilgan yodgorlik biz kutganday hukmdor qarorgohi emas, balki, antik davrining otashparastlik shahar ibodatxonasi bo'lib chiqdi.

Uchtepa Buloqmozor majmuasida Innovatsion rivojlanish vazirligining "yuqori texnologiya laboratoriyasi" yordamida geofizik izlanishlar hamda Akademik A. Asqarov boshchiligida arxeologik otryadning izlanishlari olib borildi. Quyida Innovatsiya rivojlanish vazirligining Yuqori texnologiya laboratoriyasi yordamida olib borilgan geofizik izlanishning natijasi berib o'tilgan

2-guruh

Uchtepa -2 obyektining tarixiy topografiyasi va strategiyasi.

Ushbu yodgorlikning tarixiy topografiyasiga ko'ra, qazishma olib borilayotgan tepa aslida antik va ilk o'rta asrlarda tegishli qadimgi katta shaharning bir bo'lagi bo'lgan. Uning asosiy qismi sobiq sovetlar davrida tekislanib, ekinzorlarga o'g'it, atrof axoliga tomorqa yer uchastkasi qilib bo'lib berib yuborilgan. Bizgacha saqlangan tepa maydoni taxminan 0,50 ga. Qazishma jarayonida ochilgan me'moriy qurilma qoldiqlari va topilmalar tarkibiga ko'ra, bu tepa qadimgi shahar axolisining Quyoshga sig'inadigan muqaddas ibodatxonasi bo'lgan. Ibodatxonaga bundan 2 ming yil avval asos solingan. Arablar bosqini davrida ibodatxona vayron etilib, keyin qayta tiklanmagan.

Xozirgi kunda Uchtepa-2 yodgorligi milodiy VIII asr oxirlaridan shakllana boshlagan va hozirgacha davom etib kelayotgan qishloq qabristoni bilan qo'shib ketgan. Xatto, keyingi yillarda uning quyoshga o'ngay tomonida qabrlar paydo bo'la boshlaydi. Yodgorlikda arxeologik qazishmalar boshlangach, qishloq oqsoqolarining roziligi olinib, bunga chek qo'yildi.

Yodgorlikni o'rganishda avval uning eng baland nuqtasiga reper qozig'ini o'rnatib, tepa markaziy maydonining ustki qismi 2x2 metrli kvadrat setkalarga bo'lib chiqildi. Har bir kvadrat maydoni sho'rg'ak mayin tuproqdan 1 metr chuqurlikda tozalandi. Tozalangan maydondan na qurilish qoldiqlari, na sopol parchalari uchratildi. So'ng tepa maydoni 4 ga bo'linib, ular ham birin-ketin sho'rg'ak mayin tuproqdan tozalana boshlandi. Ayniqsa tepasini shimol va shimoliy-sharqiy tomonlari tevarak-atrof aholi tomonidan chiqindixonaga aylantirilgan bo'lib chiqdi. Yodgorlikning bu qismini chiqindidan tozalash davomida uning bu tomonlari materikkacha buzilib tashlanib, turli xil xo'jalik xonalari qurilganligi tufayli tegishli madaniy qatlam saqlanmaganligi aniqlandi.

Shundan so'ng yodgorlikning yoshini aniqlash, yodgorlikda tarkib topgan madaniy qatlamlarning xronologik ketma-ketlikda shakllanishini o'rganish maqsadida uning ikki joyida strategik shurf va transheya qazildi.

Strategik shurf tepalikning shinoli-g'arbiy tomonida, tepalik chegarasi 3,5x2,40 metr hajmda qazildi. Uning chuqurligi hozirgi yer satxidan to ona yer

(meterik) qatlamiga 1.70 sm.ni tashkil etadi. Ona yer materik qatlami och-jigarrangli tuproqdan iborat bo'lib, uning ustida kulrang qatlam joylashgan. Bu qatlamda tiniq va qizil rangda angoblangan sopol parchalari va hayvon suyaklarining siniqlari uchratildi. Uning yuqorisida 1.30 sm qalinlikda sarg'ish tuproqli madaniy qatlam joylashgan. Bu qatlam tarkibida to'qqizil va ochqizil ranglarda angoblangan sopol parchalari, mog'orbosgan sopol qozon siniqlari, yongan o'tin ko'mir va uy hayvoni suyaklari uchratildi. Angoblangan sopol parchalari juda yupqa stenkali, kulolchilik charxlarida yasalgan. Qazishmalarni yuqori qismining yuzi yangitdan chim bosib ketgan. Shurf maydonida qurilma qoldiqlari uchratilmadi.

Stratigrafik transheya tepalikning shimoliy tomonidan janubga qaratib solindi. Uning uzunligi 10 m., kengligi 1 metrdan iborat. Transheya kemasida shimoldan janub tomon paxsa va xom g'isht qatlamlari aralash madaniy qatlamlarni kesib 4 metrgacha tushildi, uning janubiy adog'ida esa 2 m. masofada 7 metrli chuqurlikda ochildi.

Nazorat –yakuniy bosqichi

- Yakun yasash – natijalar tekshiruvini o'tkazadi;
- guruhning har bir ishtirokchisi o'z nuqtai nazari bilan o'rtoqlashadi;
- Guruh ishini tahlil qiladi, topshiriq bajarilishining yakunini qiladi, erishilgan maqsad to'g'risida xulosalar chiqaradi.

Yuqoridagi guruh topshiriqlari bo'yicha suhbat

- Uchtepa Buloqmozor majmuasi Farg'ona vodiysining qayerida joylashganligini izohlab bering;
- Uchtepa Buloqmozor majmuasining strategiyasi aniqlang;
- Uchtepa Buloqmozor majmuasida topilgan altar-o'choqlar va tosh otashkadalarning tuzilishi va diniy marosimlarining o'ziga xos tomonlari jadval tuzing;
- Uchtepa Buloqmozor yodgorligi Kulolchilik mahsulotlarining tavsifiy va davriy harakteristikasi aniqlang.

Mavzuni mustahkamlash uchun berilgan savollar.

1. Bu davrga oid qanday tarixiy obidalarni bilasiz?
2. Uchtepa Bulqmozor majmuasi Farg'ona vodiysining qayerida joylashgan?
3. Uchtepa Bulqmozor majmuasining strategiyasini tushuntirib bering?
4. Uchtepa Bulqmozor majmuasida topilgan altar-o'choqlar va tosh otashkadalarning tuzilishi va diniy marosimlarining o'ziga xos tomonlari?

Mavzuni mustahkamlash uchun interfaol metodlar orqali topshiriqlar

Toifali jadval"ni to'ldiring

Obekt	Topilgan joy	Obektning xususiyati.

UCHTEPA BULOQMOZOR ARXEOLGIK YODGORLIGI TARIXIY TOPOGRAFIYASI

shaharlari	Geografik hududi	axolisi

“T” sxema jadvali

UCHTEPA BULOQMOZOR ARXEOLOGIK YODGORLIGI TARIXIY TOPOGRAFIYASI	
+ (ha, ijobiy, yutuq, afzalliklari)	- (yo‘q, salbiy, kamchiliklari)
XULOSA	

Uchtepa Bulqmozor majmuasida topilgan altar-o‘choqlar va tosh otashkadalarning tuzilishi va diniy marosimlarining o‘ziga xos tomonlari

ijtimoiy-siyosiy sohada		iqtisodiy sohada		madaniy sohada	
Yutug‘i	Kamchiligi	Yutug‘i	Kamchiligi	Yutug‘i	Kamchiligi
XULOSA					

«Tushunchalar tahlili» texnologiyasi

tushunchalar	mazmuni
	?
	?
	?
	?
	?

SWOT – tahlil

Qo‘qon xoligining ijtimoiy-siyosiy,iqtisodiy va madaniy ahvoli

	Kuchli tomoni	
	Ojiz tomoni	-
	Imkoniyatlari	-
	Xavflar	-

4.2. Tajriba-sinov natijalari

Mavzu bo'yicha eksperiment darsi Tarix fakulteti, Tarix o'qitish metodikasi yo'nalishi 1-kursning ikkita guruhi "arxeologiya" fanida olib borildi. Mazkur tanlangan mavzu Tarix fakulteti 1 kurs Tarix o'qitish metodikasi yo'nalishi "arxeologiya" fanida o'tiladi. 19- mavzu, «Uchtepa buloqmozor arxeologik yodgorligi tarixiy topografiyasi va uning tahlili» mavzusida o'qitiladi. Darsning mazmuni: Farg'ona vodiysi Namangan viloyati Norin tumani uchtepa qishlogida joylashgan Uchtepa Buloqmozor majmuasini o'rganish.

Eksperiment mashg'ulot uchun amaliy mashg'ulot tanlandi, bunda an'anaviy dars, hamda ilg'or pedagogik texnologiyalardan foydalangan holda tashkil etildi. Tajriba sinov ishlari olib borilgach, eksperiment natijalari aniqlandi.

Tanlangan 1-01 hamda 1-02 guruhida guruhlarida an'anaviy dars o'tildi. Sababi o'qituvchi barcha qiziqarli materiallarni mazmun va mohiyati bilan o'zi izohlab tushuntirib berdi, bunda talabalar jalb qilinmadi, natijada faollik bo'lmadi. Aksariyat qismi talabalarni mavzuga majburiylik nuqtai nazaridan qiziqmay eshitdilar. Bunda o'zlashtirish ko'rsatkichlari past bo'ldi, ya'ni talabalar passiv tinglovchiga aylanib qoldilar.

Ikkinchi o'quv mashg'ulotida talabalarni ikkala guruhda ham pedagogik texnologiyalar yordamida tarixiy materiallarni jalb qilgan holda dars tashkil etildi. Ya'ni talabalar suhbat, muhokama usullarida dars o'tildi, bundan tashqari "Hamkorlikda o'qitish" texnologiyasi yordamida talabalarga topshiriqlarni berildi. Darsning amaliy mashg'ulot ekanligini inobatga olgan holda barcha talabalar kichik guruhlarda ishlashga jalb etildi, birortasi ham bo'sh o'tirmaganini yutuq chsifatida ta'kidlash mumkin. Natijada deyarli barcha talabalarni ishtirokini ta'minlashga erishildi. Maqsadimiz ham shu edi.

Ushbu eksperimentning tahlili natijalariga ko'ra, har ikkala an'anaviy mashg'ulotda talabalarning faolligi past va darsga qiziqish ham sustroq bo'ldi. 100 foiz talabadan atiga 20 foiz qismigina ishtirok etdilar. Ikkinchi marta huddi shu mavzuni keyingi kuni tushunchalar tahlili va Hamkorlikda o'qitish texnologiyasi asosida, tarixiy obekt o'rganilgach, suhbat topshiriqlari orqali amalga oshirilganda talabalar berilgan muammoning javobini izlashga kirishdilar.

Shuningdek, ikkinchi darsimizda hamkorlikda o'qitish, keys kabi texnologiyalardan va boshqa interfaol usullardan foydalanish bizga guruhni faollashtirishga yordam berdi. Bu dars davomida talabalarga pedagogik texnologiyalar yordamida faollashish imkoniyati yaratildi bu esa ularning o'zlashtirish ko'rsatkichlarini keskin ko'tarilishiga olib keldi.

Pedagogik texnologiyalardan foydalanish bo'yicha uslubiy tavsiya sifatida SWOT tahlili, tushunchalar tahlili, "Hamkorlikda o'qitish", Keys stadi kabi zamonaviy pedagogik texnologiyalar talabalarni tarixiy manbalar bilan ishlashga, mavzuning mohiyatini chuqur anglaga yordam berishi ko'rsatildi.

Ta'limiy tajriba bosqichida Tarix o'qitish metodikasi yo'nalishi 1 kurs talabalarining "Arxeologiya" fani bo'yicha amaliy mashg'uloti tashkil etilib, o'quv topshiriqlarini bajarishdan iborat ta'limiy faoliyatlarni tarixiy manbalar va pedagogik texnologiya vositasida amalga oshirish, bu jarayonda texnik, texnologik va funksional harakatlarning maqsadga muvofiq, izchil, samarali amalga oshirish malakalarining muvaffaqiyatli o'zlashtira olishlari tadqiqot maqsadiga erishishni kafolatlovchi amaliy natija sifatida e'tirof etildi. Tajriba-sinov ishlarini olib borishda quyidagi ilmiy-amaliy tavsiyalar ishlab chiqildi va ta'limiy tajriba bosqichida ularning samaradorligi o'rganildi:

1. Malaka oshirish kurslarining mavjud imkoniyatlariga tayanib pedagoglarda axborot-kommunikativ kompetentlikni rivojlantirishga e'tibor qaratish va bu borada zarur shart-sharoitlarni yaratish.

2. Tarmoq va mintaqaviy markazlarda tinglovchilarning ta'lim jarayonida axborot-kommunikatsiya texnologiyadan foydalanish malakalarini oshirish yo'lida malaka oshirish kurslaridan keyin metodik yordamni tashkil etish.

3. Talabalarning o‘zlarida tarixiy obekt bilan ishlash, kompetentlik sifatlarini rivojlantirishga bo‘lgan qiziqish va motivatsiyani yuzaga keltirish.

4. Talabalarda Arxeologiya fanini o‘rgangandan keyin ham o‘zlarida mavjud bo‘lgan kompetentlikni izchil rivojlantirib borishni ta‘minlovchi malakalarni shakllantirish. Asoslovchi va ta‘kidlovchi tajriba jarayonida malaka oshirish kurslari tinglovchilarida axborot-kommunikativ kompetentlikning rivojlanganlik darajasini baholashga e‘tibor qaratildi.

Bu yo‘lda tashkil etilgan pedagogik faoliyat uchun talabalarning suhbat jarayonida aniqlangan bilimi savollariga javoblari va berilgan topshiriqlarni pedagogik texnologiyalari yordamida xatosiz bajara olishlari asos sifatida qabul qilindi.

Asoslovchi tajriba davrida an‘anaviy ta‘lim talabalarning test so‘roviga javoblari kutilgan natijalarni bermadi.

Tajriba va nazorat guruhlarining tinglovchilarning nazariy bilimlari darajasi o‘rtasida deyarli farq ko‘zga tashlanmadi. Talabalarning ta‘lim jarayonida tarixiy manbalar yordamida mavzuni o‘zlashtirishi turli kompetentlikka ega bo‘lishlari ularning kasbiy tayyorgarliklarini ifodalovchi asosiy mezon hisoblanadi.

Shu sababli asoslovchi va ta‘kidlovchi tajriba davrida talabalarning amaliy jihatdan kichik guruhlarda o‘zlashtirgan bilimlari, tarixiy voqelikni o‘zlashtirish va boshqa kompetentlikka egalik darajalari aniqlandi (1-jadval):

1-jadval Talabalar tomonidan amaliy topshiriqlarning bajarilish ko‘rsatkichlari (tajribaning avvali va yakunida)

101-102 Guruhlar	tala bala r soni	Daraja ko‘rsatkichlari					
		Yuqori		O‘rta		Quyi	
Tajriba (101- ta)	63	Tajriba avvali	Tajriba yakuni	Tajriba avvali	Tajriba yakuni	Tajriba avvali	Tajriba yakuni

(102 –ta)							
Nazorat	63	12	1 9	16	24	25	10

Statistik tahlil natijalari o‘quv mashg‘uloti jarayonlarda talabalarning, O‘zbekiston tarixi, Arxeologiya, tarixshunoslik kabi fanlar integratsiyasi yordamida olingan bilimlari ham as qotadi. Kasbiy bilim, ko‘nikma va malakalarini o‘zlashtirish darajasini baholash mezonining birdan, tarixiy bilimni o‘zlashtirishi va boshqa kompetentlik darajasini samarasini tasdiqlaydi.

Xususan, keltirib o‘tilgan ma’lumotlardan mazkur darsning tajriba guruhidagi talabalarning barcha bilimi o‘zlashtirishi sifatini rivojlantirish imkonini berdi.

To‘rtinchi bob bo‘yicha xulosalar

Magistrlik dissertatsiyasining to‘rtinchi bobi mazkur tadqiqotimizdan olingan xulosa va yechimlarni tarix ta’limiga joriy etish masalasiga qaratilgan bo‘lib, mavzu yuzasidan tajriba sinov ishlari olib borilib, olingan tahlil va xulosalar aniqlandi. Eksperimental dars 5110600 – Tarix o‘qitish metodikasi yo‘nalishi 1-01 va 1-02 guruhlarining amaliy mashg‘ulot darslarida olib borildi. Bunda “Uchtepa buloqmozor arxeologik yodgorligi tarixiy topografiyasi va uning tahlili” mavzusida biz tadqiq etgan “Uchtepa Buloqmozor majmuasi obyektlarining tabiiy geografik joylashuvi va uning o‘rganilishi” to‘g‘risida moddiy manbalar bandi ham qo‘shib o‘qitildi. Amaliy mashg‘ulotda mavzuga tegishli yozma manbalar, keyingi yillardagi tadqiqotlardan olingan ma’lumotlar kiritildi. Bunda darsni o‘zlashtirish

jarayonida barcha talabalar kichik guruhlarga biriktirilib, o'quv topshiriqlarini bajarishga imkon yaratildi. Natijada, bunday yondashuv sifat o'zlashtirishga ijobiy ta'sir ko'rsatdi

YAKUNIY XULOSA.

Ushbu dissertatsiyada arxeologik qazishma ishlariga va Innovatsiya vazirligining "Yuqori texnologiyalar laboratoriyasi" geofizika tadqiqotlari natijalariga tayanib, Uchtepa-2 obyekti antik va ilk o'rta asrlarga tegishli otashparaslik ibodatxonasi ekanligi tasdiqlandi. Ushbu ibodatxonadan topilgan ko'plab altar-o'choqlar, tosh qurilma va qabrlarning qayd etilishi va aynan "Uchtepa-2" arxeologik obyektidan markaziy otashparastlik ibodatxonasining topilishi shu yerlik aksariyat aholining qadimda otashparastlik diniga e'tiqod qilishganligi ko'rsatmoqda.

Ushbu ibodatxonadan topilgan ko'plab altar-o'choqlar, tosh qurilma va qabrlarning qayd etilishi va aynan Uchtepa-2 arxeologik obyektidan markaziy otashparastlik ibodatxonasining topilishi shu yerlik aksariyat aholining qadimda otashparastlik diniga e'tiqod qilishganligi ko'rsatmoqda.

Ushbu ibodatxona xarobalarini qazish jarayonida juda noyob topilmalar topildi. Jumladan, topilmalar orasida 40 dan ortiq olovga sig'inish altar-o'choqlar, qurbonlik xayvonlarini so'yish uchun tayyorlangan 10 dan ortiq muqaddas tosh pichoqlar, toshdan yasalgan bir necha xil turdagi sanam-ma'budalar, ko'plab otashparastlik bilan bog'liq diniy-kult ashyoviy dalillari, muqaddas xaoma ichimligini tayyorlashda ishlatiladigan tosh yorg'uchoqlar, minglab kulolchilik charxida professional yuksak darajada yasalgan nafis va xushbichim sopol idishlar va ularning parchalari, ibodatxona rohibalarining qabrlari, qabr skeletlari bel qismidan bel kamarining to'qalari, qurbonlik hayvonlarini go'shtining ma'lum

qismi va ular yonidan temir pichoq va qabrga ovqat bilan qo'yilgan sopol idishlar va zardushdiylikda muqaddas hisoblangan kuchuklar qabri topildi.

Ularni tuproqdan tozalash va shifrlash jarayonida sopol parchasida va qator tosh ma'budalar tanasida oromiy yozuvi shaklida bitilgan eng qadimgi yozuv parchalari va olov bilan bog'liq samoviy iloh va farishtalar suratlari chizilgan sxematik sanamlar topildiki, ularning ilmiy qimmatini tarix va ma'naviyat uchun benihoyat kattadir. Chunki, bu topilmalar Farg'ona vodiysi tub joyli aholisining ajdodlari orasida rosa 2 ming yil avval oromiy yozuvida savodxonlik va yuksak didli musavvirlar bo'lganligidan guvohlik beradi. Bunday qadimgi noyob yodgorlik nafaqat Norin tumanida, balki qadimgi Farg'ona vodiysining biror viloyati yoki tumanida avval uchratilmagan.

Uchtepa 2 Bulqmozor yodgorligi haqiqatdan juda noyob va nozik obyekt. Ushbu maskan mafkuraviy ahamiyati jihatidan ikki jahon dini to'qnashgan obyektidir. Milodiy VIII asr boshlarida arab xalifaligining Sharqiy viloyatlar noibi Qutayba ibn Muslim Movarounnahr bo'ylab mahalliy otashparast va butparastlarni islom diniga tortish bilan shuxrat topadi. Ana shu harbiy va diniy yurishlar davomida Qadimgi Farg'onaning Miyon Rudan muzofotining Xaylom shahrida joylashgan (hozirgi kunda bu joy Norin tumaning Uchtepa qishlog'i) ushbu otashparastlik ibodatxonasi ham vayron etiladi. O'sha kezlarda Qutayba qo'shinlari bilan birga kelib, otashparastlarni islom diniga kiritish bobida shuxrat qozongan payg'ambarzoda Quraysh ona nomini hozirgacha Uchtepaning keksalari hurmat bilan eslaydilar. Bulq yaqinida tarkib topgan Bulqmozor qabristoni esa ana shu ona qabri tufayli, uning izdoshlari va muridlari tufayli shakllangan. Bu afsonaviy qahramon mahalliy xalq orasida hozirgacha Qora Xotun (qadimgi turkiychada "Buyuk malika") nomi bilan ma'lum va mashhur bo'lib, Qoraxoniylar davrida uning qabri ustida shinamgina maqbara qad ko'taradi. Afsuski, sovet davrining ateistik mafkurasi uni obod etish emas, balki vayronaga yuz tutib, yo'q bo'lishigacha olib kelgan.

Yuqorida ta'kidlab o'tilganidek, Uchtepa-2 obyekti markaziy otashparastlik ibodatxonasi ekanligi tasdiqlandi. Shundan so'ng faraz tug'iladiki, ibodatxona

mavjud bo'lgan hududda albatta shahar ham bo'lishi kerak. Ushbu farazni isbotlash maqsadida yozma manbalarga murojat etildi.

Yozma manbalarning guvohlik berishicha, ushbu obyekt joylashgan hudud Xaylom shahri ekanligi tarixiy dalillarda o'z isbotini topmoqda (Koson - Axsikat besh farsax, Axsikat - Vonkas yetti farsax, Vonkas - Xaylom uch farsax, Vonkasdan daryogacha (Qoradaryo) bo'lgan yo'l bir farsaxdan bir oz ziyoda).

Manbalardagi ma'lumotlarni taqqoslash, taxlil qilganimizda Xaylom daryosi (Norin) bilan Qoradaryo o'rtasidagi Miyon Ruvzon yoki Miyon Rudan okrugining bosh shahri Xaylom Uchtepa yodgorliklari joylashgan joyda, Vonkas yoki Vanket shahri esa hozirgi Sartepa yodgorligi joylashgan hudud ekanligi ma'lum bo'ldi.

Loyiha oldida turgan asosiy vazifa nafaqat yangi ochilgan otashparastlik ibodatxonasini o'rganib ilmiy muomilaga kiritish, shu bilan birga uni "Moviy osmon" ostidagi muzey qilishga ilmiy jihatdan tayyorlash edi. Bu masalada Namangan viloyati hokimiyat rahbarlari bilan kelishilib, hokimiyat va "O'zbekturizm" homiyligida ibodatxona otashkadalari va me'moriy devor qoldiqlari namoyishida uning noyob topilmalarini ekspozitsiya stendlariga joylashtirib, ichki va xalqaro turizm uchun yangi obyektни tayyorlash ko'zda tutildi. Hozirgi kunda mana shu maqsadni amalga oshirish yo'lida izlanishlar olib borilmoqda.

Dissertatsiyada foydalanilgan ilmiy manbalar va adabiyotlar ro'yxati:

1. Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil,qat'iy tartib-intizom va shahsiy javobgarlik har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. -T: 2017. 49-bet.

2. Abdullaev M.G. "Boburnoma"da Farg'ona vodiysi toponimikasi // Buyuk ipak yo'li va Farg'ona vodiysi. Respublika ilmiy-amaliy anduman materiallari. –T., 2004. B.194-200.

3. Anarboev A.A. O'zbek davlatchiligi tarixida qadimgi Farg'ona va Axsikent // "O'zbek xalqi va davlatchiligi" Respublika ilmiy seminari materiallari. Samarqand. 2001. B.5-22.

4. Anorboev A. Islomov O'. Matboboev B. O'zbekiston tarixida qadimgi Farg'ona. — T., 2000.

5. Baratov S.R., Baratova L.S. Unikalnyy brakteat iz Varzikskogo mogilnika // ONU. №1. 1990. S.35-38.

6. Gorbunova N.G., Kozenkova V.I. Сым-тепе – poselenie v Fergane // ASGE. L., 1974. Выр. 16. Gorbunova N.G. Keramika poseleniy Fergany pervykh vekov nashey ery // TGE. T. XX. S. 114-146.
7. Gorbunova N.G. The Culture of Ancient Ferghana. VI century B.C. – VI century A.D. 1986
8. Goroda Sentralnoy Azii na Velikom shelkovom puti. Samarqand. 1994.
9. Zadneprovskiy Yu.A. Gorodiще Eylatan (k voprosu o datirovke pamyatnika) // SA. 1960. № 3.
10. Zadneprovskiy Yu.A. Drevnezemledelcheskaya kultura Fergany. // MIA, №118. –M-L. Nauka. 1962.
11. Is'hoqxon to'ra Ibrat 1913 y. "Turkiston viloyatining gazet" №48.
12. Kabirov J., Sagdullaev A. O'rta Osiyo arxeologiyasi. -Toshkent, 1990.
13. Kultura i isskustvo drevnego Uzbekistana. Tom 1, –M., 1981.
14. Latymin B.A. Nekotorye itogi rabot Ferganskoy ekspeditsii 1934 goda // ASGE. Выр. 3. L., 1961.
15. Martinov A.I. Sher Ya.A. «Metody arxeologicheskogo issledovaniya», M., «Vysshaya shkola», 2002.
16. Malinichev G. «Arxeologiya po sledam legendy i mifov», M., «Veche», 2006.
17. Matboboev B.X., Mashrabov Z. Drevniy i srednevekovyy Andijan. – T., 2011.
18. Nezavisimost i istoriya: novye podkhody k izucheniyu istoriyu Uzbekistana. –T., 1997.
19. Oboldueva T.G. Raskopki 1960 goda na gorodiще Eylatan // KSIA. Выр. 91. 1962. S.38-47.
20. Oboldueva T.G. O datirovki sten Eylatana. // SA. 1981. № 4.
21. Rtveladze E.V., Livich V.A. Pamyatniki drevney pismennosti. T., 1985.
22. Sagdullaev A.S. Qadimgi O'zbekiston ilk yozma manbalarda. –T., 1996.
23. Sagdullaev A.S. Qadimgi O'rta Osiyo tarixi. –T., 2004.
24. Sentralnaya Aziya. Novye pamyatniki pismennosti i iskusstva. M., 1987.
25. Egamberdieva N.A. O'zbekistonning eng qadimgi davr tarixini jadvallar asosida o'rgatish . Uslubiy qo'llanma. –T., 2008.
26. Egamberdieva N.A. Arxeologiya (O'zbekiston arxeologiyasi asosida). Metodik qo'llanma. –T., 2008.
27. O'zbekiston tarixi moddiy madaniyat va yozma manbalarda. –T., 2005.
28. Kudratov C.S. Rannie goncharnye pechi s gorodiща Eylatan // ONU. 1991. №3. S.75-76.
29. Kudratov S. Poseleniya levoberejya r. Narын v Fergane (III v. do n.e. –V v. n.e.) // Avtoreferat diss. ... kand. ist. nauk. Sankt-Peterburg, 1992.

ILOVALAR



1-Rasm . O'rganilayotgan obyektning joylashuv sxemasi






2-Rasm. "Uchtepa 2" ob'ekti begona o'tlardan tozalanganidan keyin.



3-rasm. O'rganilayotgan "Uchtepa № 2" ob'ektida dala ishlarini olib borish»



4-Rasm. Profillarni joylashtirish sxemasi



6- Rasm. obyektni volumentirik zichligi



7-Rasm. obyektning shimoliy tomonidagi shurf



8-Rasm. tosh qurilmalardan namunalar



9-Rasm. Altar-o'choqlardan namunalar



10-Rasm. sopol parchalaridan namunalar

“Учтепа 2” объектининг тош маъбудаси



“Учтепа 2” объектининг тошда акс этган балиқ маъбудаси



11-Rasm. Tosh ma'budalardan namunalar



12- Rasm. Qurbonlikka atalgan hayovonlarini so'yish uchun ishlatilgan tosh pichoqlar



13-Rasm. Ibodatxona rohibalardan birining qabri



14- Rasm. Tosh yorg'ucholardan namunalar



15- Rasm. vaqtinchalik muhofaza qilingan eksponat



16,17-Rasm . Altar -o'choqlar-1 va 2



18-Rasm . Altar -o'choq-3



19- Rasm. Altar -o'choq-4



20-Rasm . Altar -o'choq-5



21-Rasm . Altar -o'choq-6




22- Rasm . Altar -o'choq-7



23-Rasm . Altar -o'choq-8



24- Rasm. Altar -o'choq-9



25-Rasm . Altar -o'choq-10



26- Rasm . Altar -o'choq-11



27- Rasm . Altar -o'choq-12



Rasm -28. Altar -o'choq-13



29- Rasm . Altar -o'choq-14



30- Rasm . Altar -o'choq-15



31- Rasm . Altar -o'choq-16



32- Rasm . Altar -o'choq-17



33-Rasm . Altar -o'choq-18



34- Rasm . Altar -o'choq-19



35-Rasm . Altar -o'choq-20



36-Rasm . Altar -o'choq-22



37-Rasm . Altar -o'choq-24



38-Rasm. Altar -o'choq-25



39-Rasm . Altar -o'choq-26



40-Rasm . Altar -o'choq-27



41- Rasm . Altar -o'choq-29



42-Rasm . Altar -o'choq-31



43- Rasm . Altar -o'choq-32



44-Rasm . Altar -o'choq-33




45-Rasm . Altar -o'choq-34




46- Rasm . Altar -o'choq-35



47-Rasm. Altar -o'choq-37



48-Rasm . Altar -o'choq-38



49-Rasm . Altar -o'choq-39



50-Rasm .Altar -o'choq-40



51-Rasm .Altar -o'choq-41



52-Rasm. Tosh qurilma-1



53-Rasm . Tosh qurilma-2



54-Rasm . Tosh qurilma-3



55-Rasm . Tosh qurilma-4



56-Rasm . Tosh qurilma-5



57-Rasm . Tosh qurilma-6



58-Rasm . Tosh qurilma-7



59- Rasm . Tosh qurilma-8



60- Rasm . Tosh qurilma-9



61-Rasm . Tosh qurilma-10



62-Rasm . Tosh qurilma-11



63-Rasm. Tosh qurilma-12



64-Rasm . Tosh qurilma-13



65-Rasm . Tosh qurilma-14



66-Rasm . Tosh qurilma-15



67-Rasm . Tosh qurilma-16



68-Rasm . Tosh qurilma-17



69-Rasm . Tosh qurilma-18



70-Rasm . Tosh qurilma-19



71-Rasm . Tosh qurilma-20.



72-Rasm . 1-Qabr




73-Rasm . 2-Qabr



74-Rasm . 3-Qabr



75-Rasm . 4-Qabr Tosh ma'buda




76-Rasm . Tosh ma'buda



77-Rasm . Tosh ma'buda

ТОШ МАЪБУДА



78-Rasm . Tosh ma'buda



79-Rasm . Toshdagi baliqlar surati

Тошга чизилган ҳайвон сурати



80-Rasm . Toshga chizilgan hayvon surati

Қурбонликка аталган ҳайвонларни сўйиш учун ишлатилган тош пичоқлар (жертвенный нож)



81-Rasm . Tosh pichoqlar

Arxeologik atamalar izohli lug‘ati.

Arxeologik kuzatish – arxeologik jihatdan tekshirilmagan joylarda xo‘jalik maqsadlarida ariq chiqarish, bino qurish, yer tekislash, yer o‘zlashtirish va boshqa holatlarda yer osti va ustidagi moddiy madaniyat yodgorliklarining yo‘q bo‘lib ketmasligi uchun o‘sha joylardagi arxeologik yodgorliklarni aniqlab, ularni davlat muxofazasiga kiritish yo‘lidagi izlanishlar.

Arxeologik madaniyat – o‘ziga xos xususiyatlari bilan ajralib turadigan muayyan davrga va hududga doir arxeologik yodgorliklar birligi. Ayrim yoki bir qancha belgilarga, xususan, sopol buyumlarining shakli, naqshi, marhumlarni dafn etish tartibi, mehnat qurollari, uy-ro‘zg‘or anjomlari va boshqalarga ko‘ra belgilanadi. Odatda, yodgorlik qaerdan topilsa, shu joyning nomi bilan yuritiladi (masalan: *Qovunchi madaniyati*, *Zamonbobo madaniyati*).

Arxeologik razvedka – arxeologik tadqiqotlar dala va laboratoriya tadqiqotlariga bo‘linadi. Dala tadqiqotlari qazishmalar va dala-qidiruv (razvedka) ishlaridan iborat bo‘ladi. A.R.ning eng oddiy va ishonchli turi bu o‘rganilayotgan hududni piyoda yurib tevarak atrofdagi suv havzalari, tepaliklar va yer yuzasini diqqat bilan kuzatib chiqishdir. Yer yuzasidan terib olingan osori-atiqalar (podemnyy material) va qadimgi qurilishlar izlari shu xududda *statsionar*(davomli) arxeologik qazishmalar boshlash uchun asos bo‘lib xizmat qiladi.

Arxeologik sanalash – *arxeologik yodgorliklarning* yoshini aniqlash. Ularning sanasi yil, yuz yillar, ming yillarda mutlaq, aniq ko‘rsatilishi hamda boshqa yodgorliklarga nisbatan nisbiy (ilgari, so‘nggi) bo‘lishi mumkin. A.S. arxeologik usullar (stratigrafik, tipologik) va tabiiy fanlar usullari (radiouglerod va boshqalar) bilan aniqlanadi.

Arxeologik sinov – *arxeologik yodgorliklarni* qayd qilish (arxeologik xaritalar tuzish) va qazishma ishlari olib borish maqsadida o‘tkaziladigan qidiruv ishlari. A.S.da odatda har bir yodgorlik sinov tariqasida qisman qazib ko‘rilib, uning bunyod etilgan vaqti, umri, xususiyati kabi tomonlari aniqlanadi.

Arxeologik davrlashtirish – Rimlik shoir va faylasuf Lukresiy (mil. avv. I asr) yozuv paydo bo‘lgunigacha bo‘lgan tarixni ilk bor tosh, mis, bronza va temir davrlariga bo‘lgan edi. Lukresiyning ushbu sxemasi arxeologlar tomonidan hozirgacha qo‘llanib kelinadi. Arxeologiya fan sifatida XIX asrga kelib uzil-kesil shakllandi. Daniyalik arxeolog X.Tomsen insoniyat tarixining boshlanishi yuqoridagi uchta bosqichdan iborat bo‘lganligini 1836 yilda nashr etilgan “Shimol

qadimiyatiga yo‘riqnoma” kitobida arxeologik jihatdan isbotlab berdi. 1837 yilda E.Larte tosh qurollarini ishlatgan ibtidoiy odamlar mamontlar bilan zamonadosh bo‘lganligini aniqladi. 1865 yil ingliz arxeologi J.Lebbok insoniyatning ibtidoiy tarixini ikki davrga *paleolit* (qadimgi tosh davri) va *neolit* (yangi tosh davri)ga bo‘lishni taklif qildi. Fransuz arxeologi Gabriel de Mortile paleolitni yuqori va quyi bosqichga bo‘lib, ilk paleolitning o‘zini *shel*, *ashel* va *muste*, quyi (so‘nggi) paleolitni *orinyak*, *solyutre*, *madlen* bosqichlariga bo‘lishni taklif qildi. Bu nomlarni u Fransiya davridagi tosh davriga oid yodgorliklarning nomidan olgan edi. XIX asr oxirida yana bir fransuz arxeologi E.Pet paleolitdan neolitga o‘tish oraliq bosqichi – *mezolit*ni kashf qildi. Shu davrda neolitdan *bronza* davriga o‘tish bosqichi *eneolit* ham aniqlandi. Temir davri esa ilk temir, *antik davr* va o‘rta asrlar arxeologiyasiga bo‘lindi.

Arxeologik Qazish – maxsus ruxsatnoma asosida yodgorliklar va *madaniy qatlam*ni to‘liq o‘rganish imkonini beruvchi uslubga (avvalambor stratigrafik uslubga) rioya qilingan xolda *arxeologik yodgorliklarni* tadqiq etish. A.Q. turli arxeologik tekshiruvning yakunlovchi bosqichi bo‘lib, unda sinab ko‘rilgan yodgorlik boshdan-oyoq batamom qazib tekshiriladi, tugallangan tarixiy xulosalar chiqariladi.

Arxeologiya (yun. *archaios* – qadimgi, *logos* – fan) – insoniyat o‘tmish tarixini moddiy madaniyat yodgorliklari (mehnat qurollari, asbob-anjomlari, qurol-yarog‘lari, turar joylari, qurilishlari, qabrlarini) qazishmalar orqali o‘rganuvchi fan. Ushbu terminni birinchi bo‘lib qadimgi yunon faylasufi Platon (mil. avv. 427-347 y.) ishlatgan. Inson umrini 3 mln yil deb hisoblaganda shuning 99,998 % ni yozuvgacha bo‘lgan davr tarixi tashkil etadiki ushbu katta davrni faqat A. fani orqali tiklash va o‘rganish mumkin.

Avesto – qadimgi Eron va Turon xalqlarining diniy muqaddas kitobi, undan bizgacha Yasna, Yasht, Visparad, Videvdat deb atalgan kitobalaridan parchalar yetib kelgan. Yasht va Yasna kitobalari Avestoning eng qadimiy qatlamlari bo‘lib, ularda dehqonchilik bilan bog‘liq ma’lumotlar uchramaydi. Visparat kitobida zardushtiylarning bayram va diniy madhiyalari to‘plangan. Videvdat kitobida bosh Iloh Axuramazda yaratgan 16ta viloyatlar, jumladan Xvarizam (Xorazm), Gava Sug‘uda (Sug‘d), Mouri (Marv), Baxdi (Balx) haqida, dehqonchilik va chorvachilikning savobli sharofatlari haqida, ya’ni o‘zbek va tojik xalqlarining birlamchi o‘troq etnik komponentlari haqida ma’lumotlar berilgan.

Altar – o‘troq dehqonchilik madaniyati ilk shaharlarida katta patriarxal oila, kvartal jamoasi va shahar ibodatxonasi bo‘lib, ular ichida albatta maxsus ibodat

obyekti joylashgan. Bu joy arxeologiya amaliyotida “Altar”, “Otashgoh”, “Otashkada” deb deb atalgan.

Animizm-insonni o‘rab turgan muhitda jon va ruhlarning borligiga ishonish.

Amforlar –qo‘sh quloqli katta xumlar

Anaxita –zardushtiylik dinida suv va hosildorlik ilohasi

Angob –kulolchilikda ishlatiladigan rang .

Antik –lotincha qadimgi.

Atrobon-otashparaslik ibodatxonasini ruhoniysi

Avesto –zardushtiylik dinini muqaddas kitobi.

Ahriman –zardushtiylik dinini yovuzlik zulmat va o‘lim ,ochlik ,urush,gunoh va qabihlik tangrisi.

Ahuramazda –zaardushtiylik va mazdaklarda oliy tangri yorug‘lik, faravonlik ,sihat –salomatlik ,tinchlik va barcha ezguliklar xudosi.

Azarhurra –otashparastlar topinadigan muqaddas olov o‘t.

Azata –erkin shaxs,ozod ma’nosida. Avestoga ko‘ra zamonlar osha jamosining a’zolari asosan azatalardan iborat bo‘lgan

Efedra – Otashparastlar va Zardushtiylik dinida ibodat vaqtida biroz tetiklashib olish uchun ichiladigan muqaddas ichimlik bo‘lib, Avestoda u “xauma” deb atalgan. Xauma ichimligini tayyorlashda efedra deb atalgan xushbo‘y va kishini tetiklantiruvchi o‘simlikdan foydalanilgan. Bu o‘simlik nashasifat xususiyatga ega ekanligi aniqlangan.

Fetishizm-Qadimgi odamlarni u yoki bu buyumlarni omad keltirishiga yoxud balo qazodan asrasishiga ishonish

Ibodatxona – otashparast ajdodlarimizning islomga qadar topinish, cho‘qinish, ibodat qilish ilohiy maskani.

Katxudot – Avesto jamiyatida qishloq jamoasi “vis” deb atalib, uning boshligi, kavisi Avestoda “vispati”, qadimgi sug‘diy tilida “katxudot”deb atalgan.

Kenotaf – (yunoncha. *Kenotaphion* – murda skeletisiz qabr) – murda qo‘yilmagan bo‘sh qabr, ya’ni musofirlikda, ovda yoki yov bilan kurashda bedarak yo‘qalib, vafot etgan shaxs ruhining qabri). Qadimgi Misr, Yunoniston, Rim, bronza davrida O‘rta Osiyoda kenotaf qabrga, uning loydan yoki matodan yasalgan mitti haykalchasi, yoki uning chorva mulkidan bitta ko‘zichoq yoki taqachani marxum qanday holatda ko‘milsa, aynan shunday holatda ko‘mish dafn marosimiga aylangan

Keramika – tuproq yoki anorganik moddalarni yuqori temperaturada pishirish yo‘li bilan olinadigan nometal materiallar va buyumlar.

Madaniy qatlam deganda—insoniyatning turmushi, xo‘jalik faoliyati izlari saqlanib qolgan tuproq qatlami tushuniladi. Madaniy qatlamlar bir va bir necha o‘ntacha gorizontlarga bo‘linadi. Ularning qalinligi bir necha santimetrdan 30—35 metrgacha bo‘lishi mumkin. Bu esa mazkur joyda odamlarning qancha vaqt yashaganligi bilan bog‘liq. Madaniy qatlam u yoki bu qatlamlarga shurf tashlash, keyin keng ko‘lamda qazish ishlari natijasida aniqlanadi.

Materik- bezovta qilinmagan yer, inson faoliyatining izlari bo‘lmagan yer.

Mozor-qo‘rg‘on – chorvador qabilalarga dahldor bo‘lib, ikki xil ko‘rinishda, ya‘ni tosh uyumli va tuproq qo‘rg‘onli shaklda qad ko‘targan. Ichki tuzilishiga ko‘ra, yorma qabr, dromosli, katakombali lahat shaklida bo‘lib, skelet va qabr ashyolari joylashtirilgan lahat og‘zi tosh plita, tosh bloklari, ba‘zida dev g‘ishtlar bilan berqitilgan bo‘ladi.

Platforma – arxeologik qazishmalardan ma‘lumki, o‘troq dehqonchilik madaniyati yodgorliklarida ilk shaharlar (qal‘a, qasrlar) paxsa va xomg‘ishtlardan tiklangan baland (7-10 metrgacha) va keng supalar ustida qad ko‘targan. Bu bilan qadimgi muxandislar qal‘a va qasrlarni mahobatli bo‘lishini ta‘minlaganlar. Qal‘lar fundamenti rolini o‘ynagan bunday qurilmalar arxeologiya amaliyotida platforma deb atalgan. Platforma ustida, uning chetlari bo‘ylab qal‘a mudofaa devorlari tiklanib, devor ichida mitti shahar kvartallari, turli xil ishlab chiqarish obyektlari, shahar hokimining monumental saroyi, qal‘a darvozasi va undan shahar kvartallariga olib boruvchi yo‘llar joylashgan.

Protoshahar – qadimgi dehqonchilik madaniyati metropoliyalarida rivojlangan bronza davrida aholi zich joylashgan maskanlarning atrofi mudofaa devorlari bilan o‘rab olinadi. Bunday maskan jamoalari tarkibida mulkiy tabaqalanish jarayonlari o‘zining dastlabki bosqichi darajasida bo‘lgani bois, qalin devorlar bilan o‘rab olingan qal‘a ichida monumental qasr-aslzoda sardorlarning turar-joy maskanlari joylashgan. Ammo u kezlarda Arki a‘lo bo‘lmaydi. Bunday maskanlar tarixda protoshahar (protogorod) nomini olgan. Arkning shahar tarkibida bo‘lishi esa ilk shahardan dalolatdir. Masalan, Janubiy O‘zbekiston hududidan topib o‘rganilgan Sopollitepa va Jarqo‘ton yodgorliklarining birinchisi (Sopollitepa) o‘z me‘moriy rejasiga ko‘ra protoshahar bo‘lsa, ikkinchisi (Jarqo‘ton) ilk shahardir.

Qurumlar – toshli yer yuzasi biroz chuqurlatilib, unga yotqizilgan murda ustiga tuproq tortilmay, ustiga tosh-shag‘al bostirilgan qabrlar. Ular tashqi ko‘rinishiga ko‘ra, aylana, qutichasimon yashik va oval shaklida uchraydi. Qabr ashyolarida farq kuzatilmaydi. Ular asosan tog‘ yonbag‘irlarida, adirli zonalarda uchratilib, ularni asosan chorvador turkiy qabilalarga tegishli ekanligi fanda tan olingan

Qo'rg'on – Arxeologiya amaliyotida qo'rg'onlar ikki xil bo'ladi. Birinchisi mozor qo'rg'onlar. Ularning katta-kichikligi uning ostiga ko'milgan shaxsning hayotlik davridagi mavqei, darajasiga bog'liq bo'lgan. Ikkinchisi ilk o'rta asrlardan boshlab katta mulk egalari tegishli bir darvozali qal'a-qo'rg'on. Uning atrofi mudofaa devorlari bilan o'rab olingan. dirlarga o'rta asrlarda qalin va baland mudofaa devorlari bilan o'rab olingan bo'lib, devorlar osti bo'ylab qo'rg'on qatxudodiga qaram bo'lgan turli toifa xizmatchilarning uy-joylari joylashgan. Qo'rg'on o'rta qismini bog'u-roq'lar, ekin maydonlari egallagan. Hozirgacha nomlari saqlanib kelgan Tepaqo'rg'on, To'raqo'rg'on, Qumqo'rg'on, Chimqo'rg'on kabi shahar va qishloqlar ana shu qo'rg'onlarning keyingi davrlardagi rivojlanishi asosida tarkib topgan toponimlardir.

Transheya –tuproqda odatda trapesiyasimon kesim bo'yicha va kerakli uzunlikda 10 metrdan 1000 metrgacha qaziladigan chuqurlik.

Turlar – “Tur” atamasi ilk bor Avestoda uchraydi. Ezguliklar bosh xudosi Axuramazda olamni yaratganda birinchi bo'lib Aryanam Vaychahni yaratgan. Aryanam Vaychah maysazor o'tloqlarga boy o'lka bo'lib, bu mamlakatga chorvador tur qabilalari joylashtirilgan. Turlarning aslzoda qatlam oriylar bo'lib, ularning yetakchiligida mil. avv. II ming yillikning o'rtalarida oriylarning shimol dashtlaridan janubiy o'lkalar tomon migratsiyasi yuz bergan. Ular O'rta Osiyo hududlari orqali hozirgi Eron pasttekisliklariga, Hindiqush tog' tizmalaridan oshib, to Shimoliy Hindistongacha kirib boradilar. Chorvador turlarning O'rta Osiyo hududlariga kirib borishining cheki bo'lmadi, turlarning O'rta Osiyo hududlarida o'tirib qolgan qabiladoshlari izidan kirib kelishi ilk temir, antik va ilk o'rta asrlar, shuningdek keyingi asrlarda ham davom etadi. Ularning aksariyat qismi O'rta Osiyoning Amudaryo o'rta oqimlarigacha bo'lgan hududlarda o'mashib qoladilar. Oqibatda turlar keng tarqalgan joylar dastlab Turon, keyinroq (milodiy VII asrdan boshlab) Turkiston deb ataladigan bo'ldi.

Vis –avestodagi urug' jamosi.

Vaginpat- kohin, ibodatxona ruhoniysi .

Vara- avestoda devor bilan o'ralgan to'rt burchakli xona

Vag'nze mulki – zardushtiy ibodatxonalarga qarashli yer-mulk, turli xil ishlab chiqarish obyektlari vag'nze mulki hisoblanib, ulardan tushadigan daromat ibodatxonalar ta'miriga, ibodatxona mubodlari va rohiblarining xizmat haqiga sarflangan.

Xara – zardushtiylarning eng baland tog'i.

Zantu –avestoda qabila shunday nomlangan

Zardusht-zardushtiylik dinini asoschisi

Zand –avesto matnlariga sharh.

